

MILLIY ARMIYAMIZ YANGI O'ZBEKISTONNING MUSTAHKAM QALQONIDIR!

VATANPARVAR



● Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqa boshlagan ● 2023-yil 15-dekabr, №50 (3060)



BIZ
HAQIMIZDA

@ vatanparvar-bt@umail.uz

facebook.com/mudofaavazirligi

t.me/mv_vatanparvar_uz

instagram.com/mudofaavazirligi

t.me/mudofaavazirligi

youtube.com/c/uzarmiya

IJTIMOY-SIYOSIY, MA'NADARAJALI

QALQONCHILIK VA VATANPARVARLIK GAZETASI



**|| ER YIGIT QALQONDIR
|| YURTIGA MUDOM!**

DOLZARB MAVZULAR MUHOKAMASI



Muallif sur'atga olgan

Oliy Majlis Senatining Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasida dolzarb mavzularga bag'ishlangan yig'ilish bo'lib o'tdi. Unda Senatning navbatdagi yalpi majlisi kun tartibiga kiritilishi rejalashtirilgan masalalar dastlabki tarzda ko'rib chiqildi.



Shuningdek, yillik rejaga asosan, Qurolli Kuchlar qurilishi, uni yanada rivojlantirishning dolzarb muammolari, fuqarolarning harbiy xizmatni o'tashi va mamlakat harbiy xavfsizligini ta'minlashga oid boshqa masalalar yuzasidan Mudofaa vazirligi tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar hamda 2023-yilning o'tgan davrida vazirlik tizimida fuqarolarning murojaatlari bilan ishlash holati to'g'risida mudofaa vazirining axboroti tinglandi. Uni mudofaa vaziri o'rinbosari general-mayor Hamdam Qarshiyev o'qib eshittirdi.

Qayd etilganidek, 2023-yilning 13-yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti – Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni rahbarligida o'tkazilgan Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig'ilishida belgilab berilgan vazifalar ijrosini sifatli ta'minlash maqsadida Mudofaa vazirligi tomonidan samarali ishlar olib borildi.

Mudofaa vazirligi qo'shinlarining doimiy jangovar shayligini saqlash

maqsadida joylarda 1 000 dan ortiq to'satdan tekshiruv real jangovar vaziyatlarga yaqinlashtirilgan sharoitda o'tkazildi. Buning natijasida operativ tayyorgarlik tadbirlarining soni o'tgan yilga nisbatan 1,2 barobar ko'payib, qo'mondonlik tarkibining kasbiy tayyorgarligini oshirishga erishildi.

Mudofaa vazirligida qo'shinlarning jangovar tayyorgarligini tashkil etishda asosiy e'tibor batalyon va divizionlarning avtonom tarzda jang olib borish qobiliyatlarini oshirishga qaratilgan. Qo'shinlardagi barcha amaliy mashg'ulotlar va taktik o'quvlar asosiy bosqichining 50 foizi real jangovar harakatlar dinamikasiga yaqinlashtirilgan holda tungi vaqtlarda o'tkazilgan.

Shu bilan birga, joriy yilning o'tgan davrida fuqarolarni muddatli harbiy xizmatga chaqirish hamda xizmat muddatini o'tab bo'lgan muddatli harbiy xizmatchilarni Qurolli Kuchlar rezerviga bo'shatish tadbirlari rejali amalga oshirilgan. Jangovar va ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarlik, shuningdek bilim saviyasi bo'yicha yuqori ko'rsatkichlarga erishgan 5 mingga yaqin muddatli harbiy xizmatchiga oliy o'quv yurtlariga imtiyozli ravishda o'qishga kirish uchun tavsiyanomalar berildi.

Joriy yilning o'tgan davrida Mudofaa vazirligi tomonidan harbiy kadrlarni tayyorlash va ilmiy tadqiqot ishlarini yanada takomillashtirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar olib borilgan. Jumladan, Qurolli Kuchlar akademiyasida harbiy pedagogika va

psixologiya mutaxassisliklari bo'yicha 2 yillik maxsus sirtqi ta'lim tizimi yo'lga qo'yilgan.

Qo'shinlarni yangi namunadagi qurol-aslaha va texnikalar bilan butlash, modernizatsiya qilish va ta'mirlash ishlari davom ettirilgan.

Mudofaa vazirligi tizimida fuqarolarning murojaatlari bilan ishlash faoliyati tizimli yo'lga qo'yilgani ham yig'ilishda alohida qayd etildi. 2023-yilning 11 oyida Mudofaa vazirligiga jismoniy va yuridik shaxslardan 4 074 ta murojaat kelib tushgan. Shundan 1 826 tasi ijobiy hal etilgan, 2 005 ta murojaatga huquqiy maslahat berilgan va 243 tasi o'rganib chiqilmoqda.

Jismoniy va yuridik shaxslardan kelib tushayotgan murojaatlarda asosan harbiy xizmatchilarning oilaviy sharoiti bo'yicha bir joydan boshqa joyga o'tkazish, harbiy xizmatga tiklash, kontrakt bo'yicha harbiy xizmatga kirish, uy-joy masalalari, oliy harbiy ta'lim muassasalari harbiy kafedralariga o'qishga kirish, o'tkazish va qaytadan tiklash hamda nafaqa va ijtimoiy ta'minotning boshqa masalalari ko'tarilgan.

Mudofaa vazirligi rahbariyati va mas'ul xodimlari tomonidan o'tkazilgan sayyor qabullarda 814 nafar jismoniy va yuridik shaxs qabul qilingan va ularga tegishli amaliy yordam ko'rsatilgan.

O'z navbatida, Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasining muhokama qilingan masalalar

yuzasidan aniq takliflari aks etgan qarori qabul qilindi.

Qarorda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining mudofaa salohiyatini mustahkamlash borasidagi farmon va qarorlarida belgilangan vazifalarning o'z vaqtida, sifatli bajarilishini ta'minlash, mas'ul rahbarlarning bu boradagi shaxsiy mas'uliyatini yanada oshirish, fuqarolar murojaatlarida eng ko'p ko'tarilgan masalalarni tahlil qilish va ularning kelib chiqish sabablarini aniqlash hamda bartaraf etish yuzasidan tizimli ishlarni yo'lga qo'yish, ijtimoiy tarmoqlarda tarqalgan har bir muammoli masalalar yuzasidan o'z vaqtida asosli munosabat bildirish, murojaatlarni o'rganishda xodimlarning mas'uliyatini yanada oshirish va ichki nazoratni kuchaytirish bo'yicha aniq choralarni ko'rish masalalari qayd etildi.

Senator va ekspertlar tomonidan bildirilgan taklif, mulohaza va savollarga mas'ullar tomonidan shu yerning o'zida javob berildi.

Yig'ilishda shuningdek O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokurorining o'rinbosari adliya polkovnigi Qahramon Isroilov ham so'zga chiqib, harbiy prokuratura organlari tomonidan 2023-yilning o'tgan davrida Qurolli Kuchlar tizimida qonun ustuvorligini ta'minlashda prokuror nazorati doirasida amalga oshirilgan ishlar holati to'g'risida axborot berdi.

**Katta leytenant
Islomjon QO'CHQOROV,
"Vatanparvar"**



Bahrom ABDURAHIMOV

SHUKUHLI TANTANA

Qurolli Kuchlar akademiyasida Tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar va kadr organlari mutaxassislari kuniga bag'ishlangan bayram tadbiri bo'lib o'tdi. Unda harbiy xizmatchilar, Qurolli Kuchlar xizmatchilari va faxriylar ishtirok etdi.



Tadbir ochiq deb e'lon qilinib, davlat madhiyasi yangragandan so'ng tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda bosib o'tilgan qadamlar aks ettirilgan videorolik yig'ilganlar e'tiboriga havola qilindi.

Dastlab mudofaa vazirining tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar bo'yicha o'rinbosari general-mayor Hamdam Qarshiyev yig'ilganlarni bayram bilan tabrikladi va mudofaa vazirining soha vakillariga yo'llagan tabrigini o'qib eshittirdi.

Tantanada mudofaa vazirining buyrug'iga ko'ra, bir guruh harbiy xizmatchilar, Qurolli Kuchlar xizmatchilari va faxriylar taqdirlandi. Shuningdek, kuch tuzilmalari o'rtasida samarali hamkorlikni mustahkamlashga hissa qo'shib kelayotgan harbiy xizmatchilar va Qurolli Kuchlar xizmatchilari DXX Chegara qo'shinlari va Milliy gvardiya qo'mondonligi hamda boshqa hamkor tashkilotlar tomonidan rag'batlantirildi.

Shundan so'ng 2023-yilda vazirlik miqyosida o'tkazilgan "Eng ilg'or



tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar organi mutaxassisi" ko'rik-tanlovining "Eng ilg'or brigada komandirining tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar bo'yicha o'rinbosari", "Eng ilg'or batalyon komandirining tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar bo'yicha o'rinbosari", "Eng ilg'or

vzvod komandirining tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar bo'yicha o'rinbosari" bosqichi hamda "Eng ilg'or harbiy psixolog", "Eng ilg'or boshlang'ich tashkilot yetakchisi", "Eng yaxshi yosh kitobxon", "Eng ilg'or kadr organi" va "Eng ilg'or harbiy kasbiy saralash

organi" ko'rik-tanlovlari g'oliblari taqdirlandi.

Erishilgan yutuqlar va tahliliy natijalarga ko'ra, 2023-yilda "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar yo'nalishida eng ilg'or qo'mondonlik", "Yoshlar bilan ishlash yo'nalishida eng ilg'or qo'mondonlik", "Harbiy xizmatchilar va ularning oilalari ijtimoiy himoyasiga katta e'tibor qaratgan qo'mondonlik", "Madaniy hordiq chiqarish tadbirlarini tashkil etishda eng katta e'tibor qaratgan qo'mondonlik", "Harbiy xizmatchilarning huquqiy madaniyatini oshirish va huquqbuzarliklar profilaktikasi yo'nalishida eng ilg'or qo'mondonlik", "Harbiy xizmatchilarning jangovar ruhini oshirishga katta e'tibor qaratgan qo'mondonlik" nominatsiyalari bo'yicha g'oliblar e'lon qilindi.

Qurolli Kuchlar Markaziy ashula va raqs ansambli san'atkorlari ijrosidagi kuy-qo'shiqlar guldastasi barchaga bayramona kayfiyat ulashdi.

**Podpolkovnik
 Gulnora HOJIMURODOVA**



MUNOSIBLAR KO'P, AMMO...

Xabaringiz bor, Mudofaa vazirligi tasarrufidagi oliy harbiy ta'lim muassasalari o'rtasida "Eng ilg'or oliy harbiy ta'lim muassasasi" ko'rik-tanlovi yuqori saviyada o'tkazilyapti.

Jarayonlar esa borgan sari qizg'in tus olmoqda. Albatta, ko'rik-tanlovdan kutilayotgan natija ham shunga yarasha.



Bunda oliy harbiy ta'lim muassasalari nufuzi va ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish, professor-o'qituvchilar, tinglovchi va kursantlarning harbiy va professional mahoratini takomillashtirish maqsad qilingan. Shuningdek, ularning jangovar ruhi, intellektual qobiliyati va yetakchilik fazilatlarini rivojlantirish, oliy harbiy ta'lim muassasalarida sog'lom raqobat muhitini yaratishga ham erishiladi.

Ko'rik-tanlovni o'tkazish bo'yicha tasdiqlangan yo'riqnomaga ko'ra, o'quv, uslubiy, ilmiy tadqiqot va tarbiyaviy ishlar holatini, shuningdek o'tgan o'quv yili yakunlari bo'yicha ta'lim jarayonida erishilgan natijalarni tekshirish va baholash yo'li bilan joylarda o'tkaziladi. Eng muhim jihati shundaki, ko'rik-tanlov doirasida faqatgina kursantlar emas, balki professor-o'qituvchilarning ham bilim va mahoratiga baho beriladi.

"Chirchiq" dala-o'quv maydonida ko'rik-tanlovning navbatdagi ishtirokchi jamoasi – Mudofaa vazirligi Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy instituti vakillari o'z bilim va mahoratlarini sinovdan o'tkazdi.

Dastlab uzoq masofaga marsh yurish amalga oshirildi. Marsh davomida ommaviy qirg'in qurollardan himoyalangan holda zararlangan hududdan betalafot o'tish, shartli dushman hujumini muvaffaqiyatli qaytarish va uni zararsizlantirish kabi shartlar bajarildi. Shundan so'ng turli masofadagi nishonlarni o'qotar qurollar yordamida yakson qilish hamda mutaxassislik yo'nalishi bo'yicha bilimlar sinovdan o'tkazildi.



– Bu kabi ko'rik-tanlovlar bizning harbiy ta'lim yo'nalishidagi faoliyatimiz samaradorligini oshirish, ilg'or tajribalarni umumlashtirish va ommalashtirish, ijodiy va ijtimoiy faollikni rag'batlantirish, harbiy kasbiy sohada intiluvchanlik va raqobatbardoshlikni shakllantirishga xizmat qiladi, – deydi mayor Sherqo'zi Hakimov. – Shaxsan o'zim bu ko'rik-tanlovda kursantlarimizning ijodiy fikrlash

qobiliyati yanada rivojlanib borayotgani, ularning umumiy g'oya va maqsad yo'lida bir vujudga aylanayotganini kuzatyapman.

Ta'kidlash joizki, tanlovning xolis va shaffof o'tishini ta'minlashga bosh-qosh bo'layotgan komissiya a'zolariga ham oson emas. Chunki vazirlik tarkibidagi oliy harbiy ta'lim muassasalarining barchasi g'oliblikka munosib. Ular ichidan eng ilg'ori esa Vatan himoyachilari kuni bayrami arafasida e'lon qilinadi va munosib taqdirlanadi.

**Katta leytenant
Islomjon QO'CHQOROV**

KO'NIKMA MUSTAHKAMLANDI



Mudofaa vazirligi qo'shinlarida zirhli texnikalarning mo'ljallanishi, umumiy tuzilishlari, ishlatilishi, texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash bo'yicha mutaxassislarning ko'nikmalarini oshirish maqsadida 15 kunlik malaka oshirish o'quv kursi bo'lib o'tdi.



Chirchiq oliy tank qo'mondonlik-muhandislik bilim yurti o'quv bazasida tashkil etilgan o'quv kursida jami 20 ga yaqin harbiy qismdan tashrif buyurgan mexanik-haydovchi mutaxassislar ishtirok etdi.

Unda asosiy e'tibor texnikalardan foydalanishda kelib chiqadigan texnik nosozliklarni mexanik-haydovchilar tomonidan aniqlash va bartaraf etish usullarini o'rganish, tunda va kunduzi, ob-havoning turli sharoitida texnikalarni

boshqarish bo'yicha amaliy ko'nikmalarini mustahkamlashga qaratildi.

Mexanik-haydovchilar o'quv jarayonlari davomida malakali o'qituvchi va ofitserlar tomonidan berilgan nazariy bilimlarni dala-o'quv maydonida amaliyotda sinovdan o'tkazdi.

Mudofaa vazirligi qo'shinlarida tizimli ravishda o'tkazib kelinayotgan bu kabi malaka oshirish o'quv kurslari mutaxassis kadrlarning sohaga oid bilim va ko'nikmalarini yanada oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

SOG'LOM KELAJAK ASOSI



Salomatlik – odamning jismoniy va ma'naviy xususiyatlarining yig'indisi. Dono xalqimiz bejiz "Sog'lom tunda sog'aql" demagan. Shu ma'noda harbiy xizmatchining o'zi va oilasining tinchligi, salomatligini ta'minlash Mudofaa vazirligining ustuvor maqsadlaridan biridir.



Sog'liqni saqlash vazirligi va "Sog'lom avlod uchun" xalqaro xayriya fondining Tibbiy-ijtimoiy markazi mutaxassislari ishtirokida Qoraqalpog'iston Respublikasi Taxiatah va Qo'ng'iro't tumanlaridagi Mudofaa vazirligiga qarashli harbiy qism shaxsiy tarkibi va ularning oila a'zolari uchun chuqurlashtirilgan tibbiy ko'rik tashkil etildi.

Unda pediatr, terapevt, ginekolog, oftalmolog, lor, nevrolog, endokrinolog kabi shifokorlar ko'rigi, shuningdek UTT va EKG

tekshiruvlari o'tkazildi. Tibbiy ko'rik davomida ayollar ishtirokida "Xotin-qizlar reproduktiv salomatligi – sog'lom kelajak asosi" mavzusida profilaktik suhbat ham olib borildi.

Ta'kidlash joizki, o'tkazilayotgan bu kabi tadbirlar yurt himoyachilarining oilalarida sog'lom turmush tarzini keng tatbiq etish, mavjud kasalliklarni barvaqt aniqlash va tez davolash xastalikning surunkali holatga o'tib ketishining oldini olishga xizmat qiladi.

Kapitan Ahror SAFARALIYEV

E'TIBOR

USTOZLARGA EHTIROM

Tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar hamda kadr organlarining kasb bayrami munosabati bilan Mudofaa vazirligi Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy institutining bir guruh harbiy xizmatchilari sohada ko'p yillar samarali xizmat qilgan iste'fodagi podpolkovnik Isroiljon Mirzayev holidan xabar oldilar.



I. Mirzayev 1992-yilda Yekaterinburg oliy harbiy, siyosiy tank-artilleriya bilim yurtini, 2008-yilda Qurolli Kuchlar akademiyasini, 2011-yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi boshqarish yo'nalishi bo'yicha maxsus kursini hamda 2012-yil Islom universitetining maxsus kursini tamomlagan.

2003–2013-yillarda Toshkent axborot texnologiyalar universiteti maxsus fakultet boshlig'ining tarbiyaviy ishlar bo'yicha o'rinbosari lavozimida xizmat qilgan. Isroiljon Mirzayev shaxsiy tarkibning ma'naviy-ma'rifiy saviyasini yanada oshirish, harbiy xizmatchilarda yuqori axloqiy-ruhiy sifatlarni kamol toptirish va harbiy intizomni mustahkamlash hamda o'sib kelayotgan yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida

tarbiyalash bo'yicha mas'uliyatli vazifani og'ishmasdan bajarish borasida barchaga namuna bo'lib kelayotganligi alohida tahsinga loyiqdir.

Tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar hamda kadr organlarining kasb bayrami munosabati bilan Isroiljon Mirzayev mudofaa vazirligining buyrug'iga asosan, "Yosh avlodni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdagi faol ishtiroki uchun" ko'krak nishoni bilan taqdirlandi.

Harbiy xizmatchilar ustozini kasb bayrami bilan samimiy tabriklab, uzoq umr, sihat-salomatlik, oilaviy tinchlik-xotirjamlik tiladilar.

Mayor Sherqo'zi XAKIMOV,
 Mudofaa vazirligi
 Axborot-kommunikatsiya
 texnologiyalari va aloqa
 harbiy instituti

YANGILANGAN KONSTITUTSIYA

XALQ FAROVONLIGIGA XIZMAT QILADI

Konstitutsiya mamlakatning asosiy qonuni bo'lib, davlat va jamiyat qurilishi, insonning huquq va majburiyatlarini o'zida aks ettirgan oliy yuridik kuchga ega hujjat hisoblanadi.

Konstitutsiyaga muvofiq harakat qilish inson huquq va erkinliklarini adolatli hamda teng asosda himoya qilishni anglatadi. Konstitutsiya xalq farovonligi va insonlar manfaatlarining eng oliy huquqiy kafolati hisoblanib, jamiyat hayotini shakllantirish va davlatni tashkil etishning asosiy vositalaridan biri hisoblanadi.

Inson huquqlari zamonaviy davlatning konstitutsiyasida markaziy o'rinni egallaydi hamda jamiyat va davlat o'rtasidagi munosabatlarni belgilaydi. Shu sababli inson huquqlari to'g'risidagi normalar zamonaviy Konstitutsiya loyihasining ajralmas qismidir.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi deputatlari tomonidan 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan va 2023-yil 1-may kunga qadar amalda bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi xorijiy ilg'or tajriba hamda xalqaro standart va talablarga har tomonlama mos kelgan. Lekin undagi ba'zi normalarni takomillashtirish, bugungi kun talablariga moslashtirishni zamon taqozo etganligi sababli 2023-yil 30-aprel kuni bo'lib o'tgan referendumda xalqimiz tomonidan yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilindi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga kiritilgan yangi, zamonaviy va muhim normalarning hayotga izchil tatbiq etilishi, xususan sudlar tomonidan ana shu konstitutsiyaviy normalarning to'g'ridan

to'g'ri qo'llanilishi inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda yangi davrni boshlab bermoqda.

Konstitutsiyamizning yangi normalarida asosiy e'tibor inson, jamiyat va davlatning barqaror rivojlanishiga qaratilganligi, Yangi O'zbekiston o'zining ushbu sohalardagi xalqaro majburiyatlariga qat'iy sodiqligini namoyon etdi.

Xususan, yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga jinoiy ta'qibga uchragan, hibsga olingan yoki qamoqda saqlanayotgan shaxsning adolatli sud orqali himoyalaniishiga bo'lgan huquqini ifoda etadigan xalqaro huquqning umume'tirof etilgan "Xabeas korpus" instituti va "Miranda qoidasi"ning mamlakatimiz qonunchiligida joriy etilishi va mustahkamlanishiga xizmat qiladigan qator normalar kiritildi. Bu normalar qonunlarimizda avvaldan mavjud bo'lsa-da, konstitutsiyaviy qoida sifatida kiritilishi muhim ahamiyatga egadir.

Shaxsning sudning qarorisiz 48 soatdan ortiq ushlab turilishi mumkin emasligi, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi o'zining aybsizligini isbotlab berishi shart emasligi va istalgan vaqtda sukut saqlash huquqidan



foydalanishi mumkinligi, agar shaxsning o'z aybini tan olganligi unga qarshi yagona dalil bo'lsa, u aybdor deb topilishi yoki jazoga tortilishi mumkin emasligi, shaxsning sudlanganligi va bundan kelib chiqadigan huquqiy oqibatlar uning qarindoshlari huquqlarini cheklash uchun asos bo'lishi mumkin emasligi haqidagi qoidalar aynan ushbu xalqaro hujjatlarning milliy qonunchiligimizda konstitutsiyaviy qoida sifatida joy olganini

ko'rsatadi.

Konstitutsiyaning Siyosiy huquqlar belgilab berilgan 8-bobiga O'zbekiston Respublikasining davlat xizmatiga kirishda teng huquqqa egaligi, davlat xizmatini o'tash bilan bog'liq cheklovlar qonun bilan belgilanishi haqidagi yangi norma kiritilganligi ham inson huquqlari himoyasining kafolati bo'lib xizmat qiladi.

Konstitutsiyaning iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik huquqlar belgilab berilgan 9-bobiga kiritilgan 47-moddasiga ko'ra, har kim uy-joyli bo'lish huquqiga ega, hech kim sudning qarorisiz va qonunga zid tarzda uy-joyidan mahrum etilishi mumkin emas, uy-joyidan mahrum etilgan mulkdorga uy-joyning qiymati hamda u ko'rgan zararlarning o'rni qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibda oldindan hamda teng qiymatda qoplanishi ta'minlanadi. Ushbu norma xususiy mulkning himoyasini Konstitutsiya doirasida himoya qilinishini kafolatlash

bilan bir qatorda mazkur Konstitutsiya loyihasining 31-moddasida ko'rsatilgan "Har kim uy-joy daxlsizligi huquqiga ega" ekanligi haqidagi qoidani mustahkamlagan va to'ldirgan.

Yangi Konstitutsiyaning yana bir diqqatga sazovor qoidasi 67-moddada belgilab berilgan. Unga ko'ra, davlat qulay investitsiyaviy va ishbilarmonlik muhitini ta'minlaydi. Tadbirkor qonunchilikka muvofiq, har qanday faoliyatni amalga oshirishga va o'z faoliyatini mustaqil ravishda tanlashga haqli. O'zbekiston Respublikasida hududiy iqtisodiy makon birligi, tovarlar, xizmatlar, mehnat resurslari va moliyaviy mablag'larning harakatlanishi kafolatlanadi. Ayni bu qoidalar xalq farovonligi va mamlakat iqtisodiyotining barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladigan, tadbirkorlar va ularning himoyasini ta'minlaydigan, davlat organlarining bu boradagi mas'uliyatini oshiradigan konstitutsiyaviy qoidadir.

Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi inson huquq va erkinliklari himoyasini kafolatlaydigan, davlatning xalq oldidagi mas'uliyatini oshiradigan, xalqaro huquqning umume'tirof etilgan qoidalarining milliy qonunchiligimizga konstitutsiyaviy qoida sifatida tatbiq qilinishini ta'minlaydigan qoidalar bilan to'ldirilganligi yurtimiz rivojiga, xalqimiz farovonligiga xizmat qiladi.

Baxriddin AHMEDOV,
Samarqand harbiy sudining raisi

✓ KELAJAGIMIZ EGALARI

VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASH YO'LIDA

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 12-dekabrda "Mudofaa vazirligi va joylardagi davlat hokimiyati organlari faoliyati samaradorligini oshirish, yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda mamlakatning mudofaa salohiyatini mustahkamlashdagi ularning mas'uliyatini oshirish bo'yicha chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoniga muvofiq, respublikaning barcha viloyatlarida harbiy-ma'muriy sektor faoliyati yo'lga qo'yildi.

Yoshlarni ham jismonan, ham ma'nan yetuk, buyuk ajdodlarimizga munosib avlod etib tarbiyalashda, ularda Vatan taqdiriga daxldorlik hissini shakllantirish, kasb-hunarga yo'naltirish maqsadida respublikamizning barcha jabhalarida salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda.

Mazkur tadbirlarni o'tkazishdan ko'zlangan asosiy maqsad, yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, qiziqishlaridan kelib chiqqan holda kasb-hunarga yo'naltirish, hayotda o'z

o'rnini topishi uchun amaliy yordam berishdan iborat. Barchamizga ma'lumki, vatanparvarlik har bir davlat hayotining ma'naviy asosi hisoblanadi va jamiyatni har tomonlama rivojlantirish borasida eng muhim safarbar etuvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi.

Bugungi kunda shiddat bilan o'zgarayotgan dunyo, mintaqalar va davlatlar o'rtasida siyosiy, iqtisodiy va mafkuraviy kurashlar tobora keskinlashib borayotgan sharoitda


mamlakatimiz yoshlarining ongi va qalbiga nisbatan tashqi va ichki tahdidlar ko'lami ham kengayib, yuksak intellektual salohiyatga ega yosh kadrlarga ehtiyoj har qachongidan ham ortib bormoqda.

Yurtimizda yoshlarni har tomonlama bilimli, salohiyatli, barkamol avlod qilib tarbiyalashda, ularning hayot yo'lini to'g'ri tanlashida Mudofaa vazirligi tomonidan ham keng ko'lamli manzilli ishlar amalga oshirilmoqda.

Kelajakda Yangi O'zbekiston yoshlari Vatanga sadoqatli, buyuk ajdodlarimizga munosib avlodlar bo'lib, o'z fuqarolik burchi va konstitutsion majburiyatlarini sidqidildan bajarib, har jabhada jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilishga qodir chin vatanparvar insonlar bo'lib ulg'ayishiga ishonamiz.

Polkovnik Feruz KAMILOV,
Qurolli Kuchlar akademiyasi
kafedra boshlig'i





MILLIY MEROS — O'ZLIKNING ASL OYNASI

Yosh avlod jamiyatning eng katta, qudratli kuchi hisoblanadi. Ular jamiyatdagi mavqeyi, ijtimoiy-ruhiy xususiyatlariga qarab farqlanadi. Ularga berilgan e'tibor nafaqat shu insonlarning o'zlari uchun, balki butun jamiyat uchun qisqa davr mobaynida kutilmagan va juda foydali natijalarni olib kelishi mumkin.

Bu yoshdagi insonlarning o'z tashvishlari bo'ladi. Ular bilim olishlari, kasb egallashlari, siyosiy va fuqarolik huquqlariga ega bo'lishlari, dunyoqarashlarini shakllantirishlari zarur. Bu sharoitda yoshlarga jamiyat yaqindan yordamga kelib, ularni to'g'ri yo'lga yetaklashi zarur. Shunday ekan yoshlarga bobolarimiz qoldirgan buyuk hikmatlar, milliy merosimiz hisoblangan qadriyatlarimiz asosida ta'lim-tarbiya berish g'oyat muhim hisoblanadi.

Shubhasiz, hozirgi mafkuraviy va ma'naviy xurujlarning maqsad va mohiyatini o'z vaqtida anglab olishda milliy qadriyatlarining o'rni beqiyosdir. Yoshlar uchun odob va axloq tarbiyasi qanchalik zarur bo'lsa, vatanparvarlik tarbiyasi ham shunchalik muhim. Bu, ayniqsa, harbiy bilim yurti kursantlari uchun yanada aktual hisoblanadi. Bizning boy madaniy merosimizda bunday tarbiya uchun asos bo'ladigan manbalar juda ko'p. Bu borada ishni xalq og'zaki ijodidan boshlash kerak.

Masalan, To'maris haqidagi rivoyatlar ana shunday badiiy hujjatlardan biri hisoblanadi. Bu boradagi ma'lumot turkiy qavmlar tarixining ilk manbalaridan biri hisoblangan "O'g'uznoma"da ham bor. Ammo ajdodlarimizning milliy qahramonlariga aylangan Malika Zarina, To'maris va boshqalar haqida grek manbalaridan ham ko'proq ma'lumotlar olishimiz mumkin. To'maris jasorati to'g'risida eramizdan avvalgi 484–425-yillarda yashagan Gerodot o'zining "Tarix" kitobida yozib qoldirgan. Qayd va sanalarning aniqligi tufayli olimlar qadimgi grek tarixchisining fikrlariga ko'proq suyanadilar. Gerodotdan tashqari Strabon, Pompey Torg va undan

keyingi davr adiblari Boetsiy, Oroziy ham yozganlar.

Oroziy o'zining "Jahon tarixi" asarida voqeani batafsil tasvirlab, uni To'marisning – boshi qon to'la meshga tashlanayotgan Kirga "O'ttiz yildan beri qonga tashnaliging bosilmadi, endi miriqib ich!" degan murojaati bilan tugallaydi. Demak, To'maris jasorati ko'plab davrlar uchun vatanparvarlik borasida g'oyat hayajonli va ibratli voqea bo'lgan. Elimiz ajdodining ana shu jasoratidan biz ham, bizdan keyingi avlodlar ham ilhom va ibrat olishlari zarur.

O'sib kelayotgan yoshlarimizni komil inson qilib tarbiyalashda va ularning Vatanga muhabbatlarini orttirishda sohibqiron Amir Temur ibratli katta ahamiyat kasb etadi. Bu jahonda tengsiz sarkarda va davlat arbobi o'z yurtini obod qilish uchun bir umr otda yuradi, yurtini ulug'likka ko'taradi. Amir Temur birinchi navbatda o'z hayoti bilan barchaga o'rnak bo'lsa, undan qolgan ajoyib meros "Temur tuzuklari" bebaho ibratlar konidir. Bu kitobda aynan bizning davrimizdagi dolzarb masalalarning ham yechimi aytilayotganga o'xshaydi. Kitobning boshida:

"Tajribamda ko'rilgankim, ishbilarmon, mardlik va shijoat sohibi azmi qat'iy tadbirkor va hushyor bir kishi, ming-minglab tajribasiz, loqayd kishilardan yaxshidir. Chunki tajribali bir kishi ming kishiga ish buyuradi".

Bu so'zlar zamirida ishbilarmon, hushyor, mard, shijoatli va tadbirkor inson bilan loqayd odamning o'rtasida qanchalik farq borligi ko'zga tashlanadi. Maqsadiga intilgan har bir inson o'zining hamkoriga, yelkadoshiga qanday talablar qo'yishi kerakligi o'z-o'zidan ayon bo'ladi.

"Donishlar demishlarkim, o'z o'rnida qilingan tadbir bilan sanoqsiz lashkar qilichi ojizlik qilgan har qanday mamlakat darvozasini ochib, behisob lashkarni yengib bo'lur. Men yana tajribamda ko'rdimki, g'anim lashkarini yengish qo'shinning ko'pligi bilan emas, mag'lub bo'lish esa sipohining kamligidan bo'lmaydi. Balki, g'olib bo'lmoqlik (*Tangrining*) madadi va bandasining tadbiri bilandir".

Amir Temur bu so'zlarini o'z hayotidan olingan misol bilan izohlaydi. U 12 ming otliq askar bilan tashqaridan qo'riqlanayotgan Qarshi qal'asi ustiga 243 kishi bilan yurish qiladi va uni egallaydi. Tashqaridagi 12 ming askar qal'ani qamal qiladi. Sohibqiron tadbirkorlik va ehtiyotkorlik ishlatgan holda qal'adan chiqadi va dushman bilan bir necha marotaba jang qiladi. Nihoyat, sohibqiron 243 nafar yigiti bilan 12 ming otliq askarni mag'lubiyatga uchratib, uzoq-uzoqlarga quvib yuboradi. Bu singari g'alaba o'z yurishini tadbirkorlik bilan, "aqli raso va hushyor kishilardan kengash-u tadbir istab", fikrlarini bilib qilgani tufayli qo'lga kiritilgani ayondir.

130 yil mobaynida Amir Temur hazratlarining bu singari kitoblari G'arbning ko'plab harbiy bilim yurtlarida darslik sifatida o'rganildi, undan saboqlar olindi.

Buyuk mutafakkir Abu Rayhon Beruniy ham o'z asarlarida ma'naviy qadriyatlarining inson hayotidagi o'rni haqida ko'p ta'kidlaydi. Dastlab "Oqil kishi faqat o'z qiymatini yo'qotmaydigan ma'naviy amallardan zavqlanadi", degan alloma keyinchalik o'zining bu fikrini davom ettirib, shunday yozadi: "*Johil esa nuqul jismoniy lazzatlarga intiladi*".

Biz orzu qiladigan ma'naviy yetuklik shunday bir xazinaki, uni egallagan shaxs insoniy qadr-qimmatni hamma narsadan ustun qo'ya oladi. O'z manfaatini o'zgarat manfaat bilan qo'sha biladi. Hayot-mamot masalalari hal bo'layotgan damlarda aql-idrokka amal qilib ish tutishga urinadi. Har bir so'zi, bosgan qadami oqibatini ko'z oldiga keltira oladi.

Yaqin tariximizda jadidchilik namoyandalari jamiyat taraqqiyoti ilmfan, ta'lim va tarbiya bilan bog'liqligi to'g'risidagi fikrlarini o'rta tashladilar.

Masalan, Abdurauf Fitrat ilm-fan bilan ta'lim-tarbiyani bir-biriga qarshi qo'ymasdan, ularni mutanosib olib borish kerakligini uqtirdi. U o'zining "Rahbari najot" asarida Qur'on suralari va hadislardan keng foydalandi. Fitrat dunyoviy ilmlarni diniy ilmlar bilan birgalikda o'rganish va hayotga tatbiq etish, ulardan to'la foydalanish jamiyat taraqqiyotida katta ahamiyatga ega ekanligini asoslab berdi. U bunday holat texnika rivojiga ham yo'l ochadi, degan xulosaga keldi.

Rostdan ham, yoshlarimizni insonparvarlik ruhida tarbiyalashda buyuk tarixiy merosimiz hisoblangan islom dinining ham katta o'rni borligini inkor etib bo'lmaydi.

Mamlakatimiz mustamlakachilik kishanlarini yechib, mustaqil davlat sifatida dunyoda o'z o'mini mustahkamlab olishi qancha-qancha ijod ahlining buyuk orzusi edi?! Qatag'on girdobida qolib, otilgan Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon o'sha paytlarda shunday xitob qilgani hammaning yodida:

*Kishan kiyma, bo'yin egma,
Ki sen ham hur tug'ilg'onsen!*

Bugun shoirning ozodlik borasidagi orzulari ro'yobga chiqqan ekan, yoshlarimiz mustaqillikning qanday buyuk ne'mat ekanini yaxshi bilishlari, bu so'zlarni chin dildan tasavvur etib, mustaqil Vatanimizga munosib farzand bo'lishlari zarur.

Yoshlarimiz milliy merosimiz durdonalariga befarq qarasarlar, ularning ma'naviy tarbiyasida beparvolik va loqaydlik hukm sursa, eng dolzarb masalalar o'zibo'larchilikka tashlab qo'yilsa, o'sha yerda ma'naviyat ojiz va zaif nuqtaga aylanadi. Yoki aksincha, qayerda Vatanga muhabbat, hushyorlik va jonkuyarlik, yuksak aql-idrok va tafakkur hukmron bo'lsa, o'sha joyda ma'naviyat qudratli kuchga aylanib, fuqarolik jamiyatimiz xalqimizning chinakam poydevori bo'lib qoladi.

**Olim YULDASHEV,
Qurolli Kuchlar akademiyasi
o'qituvchisi**

UNUTILMAS

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari akademiyasi yurtimizdagi yetakchi oliy harbiy ta'lim muassasalaridan biri bo'lib, mazkur dargohda mamlakatimiz mudofaa salohiyatini yuksaltirish, Vatanimiz tinchligi, sarhadlarimiz daxlsizligini ta'minlashga qodir bo'lgan yuksak salohiyatli, keng dunyoqarash va tafakkurga ega, har jihatdan professional harbiy kadrlar shakllanib kelmoqda.



Katta tajriba va mahoratga ega professor-o'qituvchilar tomonidan bu yerda yaratilgan shart-sharoit va qulayliklardan unumli foydalangan holda, yurt posbonlarini qayta tayyorlash hamda malakasini oshirish ishlari ham sifatli amalga oshirilmoqda.

Xususan, akademiya negizida faoliyat olib borayotgan "Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlari kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish" fakulteti ham mamlakatimizning turli hududlarida sarhadlarimiz daxlsizligini mustahkam va ishonchli qo'riqlashga qodir bo'lgan professional harbiy kadrlarni tayyorlash ishiga munosib hissa qo'shib kelmoqda.

Mazkur fakultet tashabbusi bilan tashkil etilgan "Uch avlod uchrashuvi" tadbiri ham unda tahsil olayotgan kursant va tinglovchilarning ma'naviy olamini boyitishga, soha yo'nalishidagi bilimlarini mustahkamlab, kasbiy malakalarini yanada oshirishga xizmat qildi.

Uchrashuvda DXX Chegara qo'shinlari rahbariyati, faxriy qo'mondonlari va faxriylar ishtirok etib, dastlab akademiya fakultetlari faoliyati, ularda olib borilayotgan nazariy va amaliy mashg'ulotlarga guvoh bo'ldilar. Mazkur jarayonda turli ko'rik-tanlov va musobaqalarda yuqori natijalarni qo'lga kiritgan iqtidorli kursantlar bilan ham suhbatlashib, ularning muvaffaqiyatlarini alohida e'tirof etdilar.

Mehmonlarning navbatdagi manzili akademiya muzeyi bo'ldi. Ushbu maskanda ular harbiy ishining taraqqiyot bosqichlariga oid eksponatlarni



tomosha qilish barobarida, 100 yildan ortiq shonli tarixga ega mazkur ta'lim dargohi faoliyatidan so'zlovchi stendlar bilan ham yaqindan tanishdilar.

Shundan so'ng, ko'tarinki ruhda boshlangan avlodlar uchrashuvi davomida akademiya va DXX Chegara qo'shinlari rahbariyati, shuningdek faxriy qo'mondonlar yoshlar bilan uchrashar ekanlar, bugun "Kuch – bilim va tafakkurda!" degan iboraning qanchalik to'g'ri ekanini hayotning o'zi har qadamda isbotlab turgani, zamonaviy harbiy xizmatchidan ham jismonan, ham ma'nan barkamollik, eng so'nggi rumumdagi qurol-aslahalar, harbiy texnikalar va innovatsion texnologiyalardan unumli foydalana olish qobiliyati, yuqori jangovar tayyorgarlik hamda keng dunyoqarash va tafakkurga ega bo'lish talab etilayotganini ta'kidlab o'tdilar.

Shuningdek ayni damda mamlakatimizda yoshlarning ilm olishi va o'qib-o'rganishi uchun barcha shart-sharoit va qulayliklar yaratilayotgani e'tirof etilib, Yangi O'zbekiston o'zining oldiga yuksak marralar, buyuk maqsad va rejalarini qo'yib, taraqqiyot bosqichlaridan ilgarilab borar ekan, yurt posbonlari mazkur islohotlarga daxldorlik hissi bilan yashagan holda, ularni ro'yobga chiqarishda tashabbuskor xalqimiz bilan yakdillikda harakat qilishi zarurligi aytib o'tildi.

– Chegara qo'shinlarining tashkil etilishi va taraqqiyot bosqichlarida o'zlarining salmoqli hissalarini qo'shgan tajribali faxriy qo'mondonlarimiz, generallarimiz ishtirok etgan bugungi uchrashuv va samimiy suhbat bizning kelgusidagi xizmat faoliyatimizda katta o'rinni tutadi, deb o'ylayman. Albatta,

faxriylarimizning bu darajaga yetib kelishlarida, eng avvalo, ularning bilim va salohiyatlari, iqtidorlari, mas'uliyatlari-yu, tinimsiz mehnatlari yordam bergan. Bo'lib o'tgan uchrashuv davomida yanada yaxshiroq o'qishim, izlanishim, tinchligimizni ta'minlash ishiga katta hissa qo'shgan shunday fidoyi ustozlarga munosib izdosh bo'lishim kerakligini chuqurroq angladim, – deydi kursant Nodirbek Ortiqov.

Suhbat davomida faxriylar o'z hayotiy tajribalaridan kelib chiqqan holda, yoshlarni qiziqtirgan savollarga qiziqarli voqealar va misollar asosida batafsil javob berdilar. DXX Chegara qo'shinlari faoliyatiga oid videolavhanning namoyishi etilishi ham ko'pchilikning diqqat-e'tiborini o'ziga tortib, sarhadlarimiz posbonlarining jangovar-xizmat faoliyati haqidagi tasavvurlarini yanada boyitishga xizmat qildi.

Tadbirning badiiy qismida Chegara qo'shinlari Ashula va raqs ansambli xonandalari tomonidan yurtga sadoqat, mehr-oqibat va insoniylikni tarannum etuvchi kuy-qo'shiqlar ijro etildi.

Ta'kidlash kerakki, avlodlar vorisligini ta'minlashga xizmat qiluvchi bunday tadbirlarning muntazam ravishda tashkil etilishi fidoyi, yurtga sadoqatli, asl vatanparvar yoshlarni tarbiyalashda muhim omil bo'lib xizmat qilishi, shubhasiz.

Mayor Farida BOBOJONOVA
DXX Chegara qo'shinlari

HARBIY XIZMATCHILARDA HISSIIY-IRODAVIY FAZILATLAR

Hissiy-irodaviy barqarorlikka harbiy xizmatchilarning kasbiy faoliyatiga psixologik jihatdan tayyorligini ko'rsatuvchi alomatlardan biri sifatida qarash mumkin. Hissiy-irodaviy barqarorlik deganda, murakkab vaziyatlarda harbiy xizmatchilar tomonidan ularga yuklatilgan vazifalarni muvaffaqiyatli bajarish uchun qulay bo'lgan psixik holatni saqlash qobiliyati tushuniladi.

Hissiy-irodaviy barqarorlik quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- ekstremal vaziyatlarda harbiy xizmatchilar harakatlarining samaradorligini pasaytiruvchi va noaniqliklar, adashishlar tug'diruvchi psixologik reaksiyalarning yo'qligi;
- psixologik jihatdan murakkab bo'lgan sharoitlarda kasbiy harakatlarni bexato bajarish mashqini olganlik;
- kasbiy ziyraklikni saqlash, tavakkalchilik, xavf-xatar, kutilmagan vaziyatlarga nisbatan oqilona ehtiyotkorlik va diqqatni namoyish etish;
- xizmat vazifalarni qat'iy, qonuniy yuritishga salbiy ta'sir etishga harakat qiladigan shaxslarning ruhiy ta'siriga berilmaslik;
- psixologik jihatdan murakkab, nizoli, vaziyatlarda o'zini yo'qotmaslik.

Harbiy xizmatchilar faoliyatining hozirgi sharoitida ular bajaradigan ishning muvaffaqiyati, harbiy xizmatchilarning birgalikda bajaradigan mehnatning samaradorligi, jamoadagi psixologik muhit ko'p jihatdan o'z harakatlarini boshqara olish, his-tuyg'ularini jilovlay olish, kayfiyatini nazorat qila olish, vaziyatning va atrofdagilarning talablari bilan hisoblashish qobiliyatiga bog'liq. Harbiy xizmatchilar uchun o'zini aniq nazorat qilishda, iroda, tezkor qarorlar qabul qilish, xizmat majburiyatlarini, xatti-harakatlarini va his-tuyg'ularini boshqara olish qobiliyatlari ayniqsa zarur.

O'zini boshqarish orqali hissiy asabiylashishni yo'q qilish, qo'rqish va ishonchsizlik hissini tarqatish, diqqatni bir nuqtaga qaratish va butun kuchni qo'yilgan vazifani bajarishga safarbar etish, harbiy xizmatchilarning juda muhim xislati ekanligi hech kimda shubha tug'dirmaydi. Xavfli, ba'zan esa hayotga tahdid soluvchi vaziyatlarda tez-tez bo'lish harbiy xizmatchilardan o'zini tuta olishni, murakkab vaziyatni zudlik bilan baholash va eng maqbul qarorlarga kelish qobiliyatini egallashni talab etadi, bu esa qo'yilgan vazifani samaraliroq bajarishga hamda harbiy xizmatchilar orasida favqulodda hodisalar va kasbiy faoliyatning bajarilmay qolmasligiga yordam beradi.

Harbiy xizmatchilarning o'z ruhiy holatini va harakatlarini boshqara olmasligi salbiy, ko'pincha esa o'zi uchun ham, atrofdagilar uchun ham og'ir

kamchiliklarga olib kelishi mumkin. Bunday vaziyatlarning takrorlanishi ko'pincha muvaffaqiyatsizlikka, pirovardida, o'ziga bo'lgan ishonchning yo'qolishiga, ruhiy siqilishlarga olib keladi.

Masalan, o'tkazilgan tadqiqotlar natijasiga ko'ra, harbiy xizmatchilarning 30 foizi uyqusining buzilishidan shikoyat qiladilar, 70 foizdan ko'prog'i nevroitik holat ko'rinishlarining bir necha alomatlari borligini ta'kidlaganlar. Bu alomatlar ish kunining oxiriga borganda charchash (70%), diqqatning pasayishi (30%), tajanglik (10%), bosh og'rig'i (10%), uyquchanlik va darmonsizlik (10%) larda namoyon bo'ladi.

Shu sababli harbiy xizmatchilarning hissiy-irodaviy o'zini o'zi boshqarish

xizmat faoliyatini muvaffaqiyatli bajarish uchun har tomonlama qulay psixologik shart-sharoit yaratish; boshqa tomondan, dam olishga o'tishni yengillashtirish. Bunda katta tajriba natijasida harbiy xizmatchining o'zi topgan oddiy psixologik boshqaruv usullarini ilmiy asoslangan mashqli usullarni egallashdan farqlash lozim. Ruhiy boshqarish mashqli usullarini egallash deganda, odatda, avtonom, ya'ni oddiy vositalar bilan ixtiyoriy boshqarib bo'lmaydigan jarayonlarni maqsadli o'zgartirish tushuniladi. Kutilgan natijaga faqat rejali ravishda takrorlab boriladigan mashqlar orqali erishiladi.

O'z ruhiyatini boshqarishning mohiyati shundaki, inson o'zining ruhiy holatiga va butun organizmiga ta'sir ko'rsatish uchun atrof muhit bilan muloqotda bo'lish va o'z organizmini bilish jarayonida to'planadigan his-tuyg'ularini muntazam mashqlar predmetiga aylantiradi.

Hissiy-irodaviy mashqlar yordamida ruhiy o'zini o'zi boshqarish organizmning faoliyat ko'rsatishiga doir doimiy qaytma aloqa prinsipiga asoslanadi. Ushbu signallar tabaqalashgan tarzda idrok qilinishi va hissiy-irodaviy mashqlar dasturining mazmuniga (*ichki erkinlik hissini, keskinlik, zo'riqish, bo'shashish kabi his-tuyg'ularini mashq qildirish*) asos yaratishi mumkin.

Umuman, har bir sog'lom, mehnatga qobiliyatli harbiy xizmatchi o'zini o'zi boshqarish usullarini egallashi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, hozirgi kunda yer yuzida bo'layotgan harbiy-siyosiy vaziyatda, harbiy xizmatchilardan umumiy xavfsizlikni ta'minlash va muvozanatga erishish manfaatlari nuqtayi nazaridan, yangi mustaqil davlatlarning xavfsizligi va barqaror rivojlanish muammolari ulkan ahamiyat kasb etmoqda. Yer yuzida vaziyat va kuchlar nisbati shiddatli o'zgarib bormoqda. Yangi mustaqil davlatlar maydonga chiqmoqda. Bu esa hozirgi kunda davlatlar va xalqlarning barqarorligini ta'minlash uchun yangicha yondashuvlarni izlab topishni, xavfsizlikning yangicha modellarini ishlab chiqishni tobora qattiq talab qilmoqda.

Shu bois harbiy xizmatchilarni har qanday ekstremal va nostandart vaziyatlarda tezkor qaror qabul qila olishi, shuningdek jangovar vaziyatlarda o'zining jangovar qobiliyatini yo'qotmasdan dushmanga qarshi tura oladigan professional kadrlarni tayyorlashda psixologik tayyorgarlik juda katta ahamiyatga ega. Har bir harbiy xizmatchini psixologik tayyorlash orqali harbiy xizmat jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan salbiy holatlarning oldini olishga qaratilgan psixoprofilaktik ishlarni olib borish maqsadga muvofiqdir.

Podpolkovnik Elnur EGAMOV,
Qurulli Kuchlar akademiyasi
milliy iftixor va
harbiy-vatanparvarlik
kafedrasini o'qituvchisi



yo'llari va usullarini egallashlari bugungi kunda juda dolzarb vazifadir. Xizmat faoliyatida asablari mustahkamroq bo'lgan, raqib (*dushman*) bilan kurashishga yaxshiroq shaylana oladigan, nafaqat jismoniy va aqliy imkoniyatlaridan oqilona foydalana oladigan, balki, asabiy-ruhiy faolligini maqbul darajada saqlay oladigan, xizmat faoliyatining murakkab vaziyatlarida o'zining irodaviy faolligini namoyon qila oladigan harbiy xizmatchilar ko'proq muvaffaqiyatni qo'lga kiritadilar.

Hissiy-irodaviy o'zini o'zi boshqarishning asosiy maqsadi, harbiy xizmatchilarning o'z ichki imkoniyatlaridan optimal foydalanishiga, uning ijodiy salohiyati ochilishiga, kasbiy xislatlari hamda qobiliyatlari keng va samarali namoyon bo'lishiga yordam beradigan alohida ruhiy holatlarni shakllantirishdan iborat. Shunday qilib, o'z organizmida yuz berayotgan jarayonlarni mustaqil ravishda faol o'zgartirish va ularni (*muayyan doirada*) boshqarish imkoniyati katta ahamiyatga ega. O'zini o'zi boshqarish orqali qisqa vaqtga vaziyatdan kelib chiqib, ruhiy jarayonlarni faollashtirish yoki sekinlashtirish, shuningdek bajariladigan faoliyatni tayyorlash sifatini va uning samaradorligini oshirish mumkin.

Umuman olganda, psixologik jihatdan o'zini o'zi boshqarish ikki maqsadli "ustanovka"ga ega: bir tomondan,

oqibatlariga olib keladi. O'z harakatlarini boshqara olmaslik shaxsning sharoitga ijtimoiy-psixologik moslashish qobiliyatini pasaytiradi, uning hayotiy salohiyatini ro'yobga chiqarish yo'lidagi jiddiy to'siq bo'ladi.

Harbiy xizmatchilarga har kuni turli (*ko'pincha stress xususiyatiga ega bo'lgan*) omillar ta'sir etadi. Bu esa o'z navbatida, charchash, holdan toyish, turli salbiy-hissiy holatlarning yuzaga kelishi, kasbiy xizmat faoliyatidagi kamchiliklarga olib keladi.

Harbiy xizmatchilarning xizmat jarayonida o'z holatini boshqarish uchun zarur bo'ladigan vaziyatlar tez-tez yuzaga keladi. Psixologik va jismoniy qiyinchiliklar haddan tashqari ko'p bo'lganda, buning ustiga o'z xatti-harakatlarini yomon boshqarganda, haddan tashqari asabiylashish yuzaga keladi. Bu esa faoliyat samaradorligini pasaytiradi va uning noto'g'ri tashkil etilishiga, xizmatda jiddiy xato va

HARBIY TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA USLUBIY ISH

“Barchamizga ayonki, muallimning obro‘-e‘tibori bu – avvalo millatning, butun xalqning obro‘-e‘tibori. Shu bois biz keyingi yillarda o‘qituvchi va murabbiylarning jamiyatimiz hayotidagi o‘rni va ta‘sirini kuchaytirish, ta‘lim tizimini zamon talablari asosida tashkil etish bo‘yicha ulkan islohotlarni amalga oshirmoqdamiz.” Prezidentimizning bu so‘zlari harbiy ta‘lim tizimida ham o‘z isbotini topmoqda. Ayniqsa, harbiy pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish borasida ham qator izlanishlar olib borilmoqda.

Bugungi kunning talabidan kelib chiqib, oliy harbiy ta‘lim muassasasining ofitser-o‘qituvchisi, birinchi o‘rinda, professional darajasiga yetgan bo‘lishi lozim. Bitiruvchilarning, bo‘lajak ofitserlarning ma‘lumoti darajasi o‘qituvchining kasbiy-pedagogik mahoratiga bog‘liq. O‘z fanini o‘quv dasturi hajmidagina emas, balki ancha keng va chuqur bilishi talab qilinadi. Ofitser-o‘qituvchi o‘zining mavjud harbiy xizmat tajribasi hajmi bilan cheklanib qolmasdan, uni rivojlantirib borishi, shu bilan birga, mashg‘ulot o‘tadigan fani bo‘yicha bilimi, malakasi va ko‘nikmalarini, psixologik-pedagogik bilimlarini takomillashtirib borishi, mutaxassisligi va ta‘lim-tarbiya sohasidagi yangiliklar, ilmiy tadqiqotlar natijalari bilan tanishib borishi, shu bilan birga, o‘zi ham ilmiy-tadqiqot ishlari bilan shug‘ullanishi uning harbiy pedagog sifatida yuksak darajalarga erishishida muhim ahamiyat kasb etadi. Bu talablarning bajarilishi o‘qituvchining kasbiy, ilmiy va ijodiy tafakkurining o‘rishiga, dunyoqarashining kengayishiga, metodik tayyorgarligining takomillashuviga xizmat qiladi.

O‘qituvchi o‘z nazariy bilimlari, amaliy malaka va ko‘nikmalari hajmini muntazam kengaytirib borishi, o‘rganilgan ilg‘or pedagogik tajribani umumlashtira olishi, o‘zining va hamkasblarining harbiy va pedagogik faoliyatiga tanqidiy va ijodiy munosabatda bo‘lib, tegishli xulosalar chiqara olishi lozim. Pedagogning kompetentligi darajasi qancha yuqori bo‘lsa uning pedagogik faoliyati shuncha mahsuldor bo‘ladi. Umrbod o‘qishga ehtiyoj va xohish – pedagogning kasbiy rivojining muhim sharti hisoblanadi. Faqat kompetentli o‘qituvchigina kompetentli mutaxassisni tayyorlay oladi.

Mazkur vazifalarning samarali hal etilishida harbiy ta‘lim muassasalari pedagog kadrlari tomonidan uslubiy ishlarni yuksak professional saviyada olib borish, o‘quv mashg‘ulotlariga yuqori saviyada tayyorgarlik ko‘rish va o‘tkazish muhim ahamiyatga ega. Oliy harbiy ta‘lim muassasalaridagi uslubiy ishlar ta‘lim-tarbiya jarayonining tarkibiy qismi bo‘lib, harbiy ta‘lim muassasalari



qo‘mondonligi, kafedralar, professor-o‘qituvchilar tarkibi, tinglovchi va kursantlar bo‘linma komandirlari faoliyatining asosiy yo‘nalishlaridan biri sanaladi. Ya‘ni uslubiy ishlar ilm-fan va ilg‘or pedagogik tajribalarning yutuqlarini va har bir ofitser-o‘qituvchining kasbiy bilimdonligini va kasbiy mahoratini har tomonlama oshirish uchun yo‘naltirilgan amaliy tadbirlardan iborat.

Uslubiy ishlarning asosiy vazifasi: o‘tiladigan barcha ko‘rinishdagi mashg‘ulotlarning sifat va samaradorligini oshirishga, professor-o‘qituvchilarning pedagogik mahoratini charxlashga, o‘quv-tarbiyaviy jarayonni ta‘minlash va mashg‘ulotlar o‘tish uslubiyatini takomillashtirishga qaratilgan.

Kafedralarda o‘qituvchilarning fanlar yo‘nalishida o‘qitishni ilg‘or pedagogik va innovatsion texnologiyalarni, yangi avlod o‘quv adabiyotlari hamda elektron manbalar asosida tashkil etishi, professor-o‘qituvchilarning o‘z ilmiy-pedagogik mahoratini uzluksiz oshirib borishi, kursant (*tinglovchi*)larda chuqur nazariy

bilim, amaliy va kasbiy ko‘nikmalarini shakllantirishi, ilm-fanga bo‘lgan qiziqishni uyg‘otishi, ularga milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirishi hamda har tomonlama yetuk mutaxassis tayyorlashni nazarda tutgan holda ularning doimiy ravishda uslubiy tayyorgarligini rivojlantirib borish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

O‘qituvchilarning professional pedagog sifatida rivojlanishida uslubiy ishning o‘rni beqiyos bo‘lib, u harbiy ta‘lim muassasalarida barcha turdagi o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tkazish samaradorligi va sifatini oshirish, professor-o‘qituvchilarning pedagogik tayyorgarligi hamda uslubiy mahoratini rivojlantirish, shuningdek ta‘lim jarayoni va uning ta‘minotini takomillashtirishga oid tadbirlarni samarali tashkil etish hamda o‘tkazishga xizmat qiladi.

Z. YUNUSOV,
Qurolli Kuchlar akademiyasi,
harbiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori
(PhD), dotsent

TARBIYADA TANAFFUS BO‘LMAYDI

Bugun milliy qadriyatlarimiz, urf-odat va an‘analarni saqlashga, xalqimizning asrlar davomida shakllangan mentalitetiga hurmat bilan munosabatda bo‘lishga katta e‘tibor qaratilmoqda.

Shunga ko‘ra, davlat va jamiyatning eng faol qatlami bo‘lgan yoshlarimizning jismonan sog‘lom bo‘lib voyaga yetishini ta‘minlash ularning Vatanga mehr-muhabbati, sadoqati, fidoyiligini tarbiyalashda yangi texnika, texnologiya va fan yutuqlarini o‘zlashtirishga jiddiy e‘tibor berish lozim bo‘ladi. Globallashtiruv davrida ma‘naviyat sohasida vujudga kelayotgan dolzarb muammolar, xalqimiz ma‘naviyatini asrash va yuksaltirish, ayniqsa yosh avlodning qalbi va ongini turli zararli g‘oya va mafkuralar ta‘siridan saqlash va himoya qilish masalalariga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Bugungi kunda yoshlarimiz nafaqat o‘quv dargohlarida, balki radio, televideniye, matbuot, internet kabi vositalar orqali ham rang-barang axborot va ma‘lumotlarni olmoqda. Yoshlarning ma‘naviy olami daxlsizligini asrash uchun nimalarga tayanib ish olib borishimiz kerak, degan savol doim

dolzarb bo‘lib kelgan. Javob esa oddiy: har tomonlama chuqur o‘ylangan, puxta ilmiy asosga ega, muntazam va uzluksiz ravishda olib boriladigan ma‘naviy tarbiya bilan javob berish mumkin. Yoshlarimizning ma‘naviy olamida bo‘shliq vujudga kelmasligi uchun ularning qalbi va ongida sog‘lom hayot tarzi milliy va umummilliy qadriyatlarga hurmat-ehtirom tuyg‘usini bolalik paytidan boshlab shakllantirishimiz zarur.

Yapon xalqi farzand tarbiyasiga juda jiddiy qarashini ko‘p marotaba eshitganmiz. Yapon yozuvchisi Masaru Ibukaning “Uchdan keyin kech” kitobining kirish qismi quyidagi fikrlar bilan boshlanadi: “Qadim zamonlardan buyon noyob qobiliyat, eng avvalo, irsiy, tabiat in‘omi deb hisoblanadi. Bizga: “Motsart uch yoshida pianino chalgan” yoki “Jon Styuart Mill lotin tilidagi mumtoz adabiyotlarni ham aynan shu yoshda o‘qigan”, desalar,



ko‘pchiligimiz oddiygina qilib: “Albatta, axir ular daho-ku”, deb qo‘ya qolamiz.

Ammo Motsart va Millning go‘daklik chog‘idagi hayoti borasida olib borilgan chuqur tahlillardan ma‘lum bo‘lishicha, ularning otalari o‘z farzandlari buyuk shaxs sifatida kamol topishi uchun natijali tarbiya usullaridan foydalangan. Mening fikrimcha, Motsart ham, Mill ham daho bo‘lib dunyoga kelmagan. Ularning qobiliyati go‘daklikdanoq yaratilgan qulay shart-sharoit va berilgan samarali ta‘lim-tarbiyadan to‘liq rivojlandi”.

Aslida, har bir bola o‘ziga hos dahodir, faqat biz – ularning tarbiyasi uchun mas‘ul bo‘lganlar, ulardagi bu iqtidorlarning ochilishiga ko‘maklashishimiz kerak. Tarbiya va ta‘limni bir-biridan alohida ajratib

bo‘lmaydi. Bu ikki jarayon o‘zaro uyg‘un, uzluksiz asosda tashkil etilgandagina odobli, axloqiy fazilatlariga ega, yuksak ma‘naviyatli, shu bilan birga bilimdon, zukko, ruhan va jismonan sog‘lom, keng dunyoqarash va tafakkurga ega, zamonaviy kasb-hunar egasi bo‘lgan vatanparvar yoshlar yetishib chiqadi.

Fikrimizni esa xitoy xalqining ajoyib bir maqoli bilan yakunlashni joiz topdik: “Biz bir yilga rejalashtirganimizda, don sochamiz, o‘n yilga rejalashtirganimizda, daraxt ekamiz, agar butun umrga rejalashtirsak, bolalarni o‘qitamiz va tarbiyalaymiz”.

Mamadoli ISOQULOV,
Jizzax davlat pedagogika
instituti o‘qituvchisi

OTA KO'RGAN O'Q YO'NAR...

Yetimlikda o'sib, qishloq xo'jaligida ishlashdan boshqa hunari bo'lmagan otamni 43 yoshida frontga oladilar. Yuzlab vatandoshlari bilan Orenburg viloyatidagi harbiy dala-o'quv markazida harbiy xizmatni boshlagan rahmatli otam o'sha kunlarni shunday hikoya qilib berardilar:

URUSHGA TAYYORGARLIK

– Noyabr oyi, shu yil qish erta kelgan, sovuq zabtiga olib, shamol tinmas, qor qalin, chodirlarda yashardik. Peshanada borini ko'ramiz, astoydil mehnat qilish kerak, ko'r-ko'rona o'zingni ishlaganday ko'rsatishdan foyda yo'q, qurolidan foydalanishni, rus tilini o'rganaman, erta-indin jangga kiramiz, harakat qil, 30-35 daraja sovuqda qotib qolishing hech gapmas, derdim o'zimga. Ittifoq armiyasi to'satdan boshlangan urushga tayyor emasligi har sohada ko'zga tashlanib turardi. Oziq-ovqat, kiyim-kechak, ayniqsa qurol-yarog'ning nihoyatda tanqisligini ochiq-oshkora aytib bo'lmas-da, soldatlar orasida ko'p muhokamalarga sabab bo'lardi.

30-40 kishiga bitta serjant eskiroq beshotarda o'q otishni o'rgatar, ba'zan navbat yetmay qolardi. Asosan blindaj, o'q-dorilar, oziq-ovqat uchun katta-kichik omborxonalar, uzundan uzun okoplar kovlash bilan kunimiz o'tardi. Yer toshday qattiq. Uni o'yish azob. Erta tongdan qosh qorayguncha mashg'ulotimiz shu bo'lar, ma'lum bosqichdan so'ng tayyorlangan joylarni ko'mib tashlardik-da, yana metin bo'lib ketgan yerda kovla-kovlani boshlardik. O'zbek, qirg'iz, turkman, qozoqlardan iborat guruhlar asosan mana shunday "qora" ishlarda edi. 10-12 soatlab yengil-yelpi, o'lmas ovqat bilan oziqlanib ishlardik. Shunday qilib, biron-bir o'qotar qurolni mukammal o'rganmay turib, uch oy deganda frontga jo'natishdi. Bu menga og'ir botdi. Birortamiz urushga tayyor emasdik. Qaytar yo qaytmas bo'lib urushga ketyapmiz. O'sha paytda niyat qilib qo'ydim, "Nasib qilib tirik qaytsam farzandlarimni haqiqiy harbiy bilim yurtlarida o'qitaman". Xudoga shukur, niyatim, orzularimga yetdim.

URUSH ORALAB...

– Bizni yuk vagonlarga chiqarishdi, har bir vagonida o'ttiz-qirq askar. It yotish mirza turish, qayerga borayotganimizni aniq bilmasdik. Taxminan Ukraina tomonlarga... O'n oltinchi kun deganda dushman samolyotlarining dahshatli bombardimoniga uchrardik. Hali jang nimaligini bilmagan, sarosimaga tushib qolgan askarlar jonini omon saqlash uchun o'zini har tomonga otdi. Bombalash ikki-uch bor takrorlandi, butun eshelon olov, tutun ichida qoldi. Dushman samolyotlarining uni

o'chgandan keyin serjant, ofitserlar turtaraqay bo'lib ketgan askarlarni yig'ishga kirishdi, qayerdandir ikki general, ofitserlar yetib keldi.

Keyin eshitdik, o'nlab safdoshlarimiz halok bo'libdi, jarohatlanganlarning sanog'i yo'q. Tirik qolganlarni Kiyevdan yuz kilometr uzoqdagi Pushkaryova qishlog'i yonida joylashgan harbiy qismga olib borishdi. Bu yerdagi harbiylar zimmasiga Kiyev atrofini nazorat qilish va 50 kilometr naridagi qishloqni egallagan fashistlar galasini tor-mor qilish vazifasi qo'yilgan ekan. Biz esa yana o'sha eski Orenburgda qilgan ishlarimizni bajarishga kirishdik. Alam qilgani buyruqni muhokama qilib bo'lmasdi, bu qat'iy qoida edi. O'zimga jasorat topib, bir necha marta "meni jangga jo'nating, urushga boraman", deb komandirning oldiga kirdim.

Urush oralab yurdik, lekin jangga ruxsat berishmadi. Bu men uchun bir umr armon bo'lib qoldi, – deya afsuslanardi otam. Shundanmi doimo farzandlarini harbiy bo'lishga undar, harbiy bo'lmagan taqdirda ham Vatanga, ota-onasiga, do'stlariga vafodor bo'lishini uqtirardi. Rahmatli otam bir yil deganda urushdan qaytib kelgan. Kiyev yaqinidagi Ukrainka qishlog'ini fashistlardan tozalashdagi jang oldidan odatdagi mashg'ulotlar paytida omborxonaga snaryad tushib portlagan paytda qattiq kontuziya olib, uzoq muddat davolanishiga qaramay, urushga yaroqsiz deb topgan.

ARMONLARNING USHALISHI

Otam ko'p takrorlardir: – Uyg'a majburan qaytdim. Do'stlarimni vahshiyliklarga o'dirayotgan fashistga qarshi jangni davom ettira olmadim... Ammo front ortida o'z xalqi himoyasi uchun kurashayotgan jangchilarga yordam qilish harakatida bor kuchimni sarf etdim. Urush bo'lmasin, bolalarim agar takrorlanib qolsa tayyor turishimiz kerak...

Nasibki, u yomon kunlar qaytmadi. Qiyinchiliklar ortda qolib farovon zamonlar boshlandi. Gadoyboy akam oilaning to'ng'ichi voyaga yetib harbiy xizmatga chaqirildi. Otamizning quvonchi "yer-u ko'kka" sig'madi, qo'y so'yib el-u xalqqa osh berdi. Tuman mudofaa ishlari bo'limiga borib, o'g'lini artileriya polkiga yuborishlarini so'rab ariza yozdi. O'shanda men 10 yoshda edim.

– Akang haqiqiy o'qotar jangchi bo'ladi, – derdi otam faxrlanib. Uning

duolari sabab akam mohir snayper bo'ldi, oilamizga komandiri nomidan ketma-ket rahmatnomalar keldi. Uning qo'lida qurol bilan tushgan surati gazetada chiqibdi. Bu xabar va uning medal bilan taqdirlangani butun qishloqqa tarqalib, qishloq ahli akamning muvaffaqiyatlarini o'zlarinikidek nishonlagani biznida hayajonlantirar, bolalarning harbiyga bo'lgan havasini borgan sari kuchaytirardi. Otam:

– Sizlar ham shunday xizmat qilinglar, albatta harbiy texnikani yaxshilab o'rganinglar, – deya ko'p uqtirardi. Otga ishqibozlik bizga otamizdan o'tgan, padarimizning zotdor, chopqir, uloqchi otlarga qiziqishini chor atrofdagilar ham yaxshi bilishardi. Uloq chopishdagi chaptastligi, uloqni yerdan uzib olishdagi mahoratiga havas qiluvchi yosh chavandozlar ko'p edi. Katta yig'inlarda 40-50 kg og'ir uloqni yerdan uzib marraga yetkazishda namuna bo'lardi. Ot sporti yoshlarning jangovarlik ruhini yanada kuchaytiradi, ot chopgan yigitlar harbiy xizmatning qiyinchiliklariga, harbiylikning dastlabki jangovar vazifalarini bajarishga tayyor holda kirib boradilar.

Biz oilada besh o'g'il, ikki qizimiz: o'g'illarning barchasi harbiy xizmatni o'tagan, hammamiz oliy ma'lumotli.

1975-yil may oyida xizmatga chaqirishdi, surishtirsam qurilish batalyoniga yozib qo'yishibdi. Otam shu kuniyog mudofaa ishlari bo'limi boshlig'ining oldiga kirdi. "Qiziq ekansan, ko'pchilik ataylab qurilishga jo'natishlarini iltimos qiladi. O'g'ling Samarqand yoki Toshkentda xizmat qiladi, yaxshi emasmi?" – dedi polkovnik. "Yo'q, iloji bo'lsa chet elga yuboring, haqiqiy harbiy bo'lsin, tank haydashni, avtomat otishni o'rgansin", – degandi o'shanda otam qat'iy. Bu voqea kechagidek yodimda. Men Turkmanistonda tankchilar qismida xizmatni boshladim. Qoraqum cho'llari 50-60 darajali issiq. Mashg'ulotlarda AKM, to'pponcha, diskli pulemyotdan o'q otish, granata uloqtirish, qisman sapyorlik sirlarini, qurollarni belgilangan muddatda yig'ishni o'rgandim. Bosqichma bosqich T-34, T-54, T-62, o'sha paytda so'nggi zamonaviy hisoblangan T-72 zirhli bahaybat, beso'naqay ko'ringan tanklarni bemalol boshqara oladigan bo'ldik.

Har hafta uydin xat olardim. Xatlarni akam, singillarimga otam yozdirganini bilardim. Salom-alikdan keyingi so'roqlar asosan shunday bo'lardi: Nimalarni o'rganyapsizlar, ruschada qiynalmayapsanmi? Bir safar otam polk komandiri general Turovskiyga "O'g'lim sizning polkingizda xizmat qilyapti, uning qanday natijalarga erishgani haqida xabar berishingizni so'rayman", deb yozibdi. Bir kuni meni polk komandiri chaqirdi. Otamning savollarini berib, "Nimalarni o'rganding?" dedi. Mening o'rnimga komandirim javob berdi.

– Bo'linmadagi eng ilg'or askarlardan biri, yaqinda serjant unvoniga tavsiya qildik.

– Vatanga borib kelish uchun 15 sutkalik ta'vil berilsin, ota-onasi nomiga minnatdorlik xati yuboring, – dedi general.

Otam farzandlarini mana shunday jangovarlikka, vatanparvarlikka ruhlantiradigan ajoyib odam edi.

Kenja ukamiz O'rolboy ham navbati kelib, harbiy xizmatga jo'nadi. Otamiz kenja o'g'lini barchamizdan a'lo ko'rar, unga muntazam mayiz, yong'oq, bodom dudlangan qo'y dumbasi, sur go'sht yuborar, xatlarida faqat intilishni, o'qish-o'rganishni tayinlardi. Ko'p o'tmay u xizmat qilayotgan harbiy qismdan ham ota-onamiz nomiga minnatdorlik xatlari kela boshladi. Otam bu xatlardan bir nechtasini bolalarga dalda bo'ladi, deb o'zi o'qigan maktab jamoasiga ham bergandi o'shanda. Keyinchalik ukam hayotini harbiy xizmat bilan bog'ladi, polkovnik unvonida pensiyaga chiqdi. Ukamizning bu muvaffaqiyatlarini otamiz ko'rmadi, ammo ruhi shod bo'lsa kerak.

OTAMNING NABIRALARI

Bugungi kunda otamning nabiralari biri Xayrulla chegara qo'shinlarida, Murodbek Navoiy viloyatida, Asadbek Surxondaryo viloyatida, Fazliddin Milliy gvardiya saflarida kontrakt bo'yicha xizmat qilmoqda. Ukalarim, singillarimning farzandlari ham otalar orzu qilgan jasorat, mardlik maydoniga yo'l olish uchun hozirdanoq tayyorgarlik ko'rishmoqdalar.

Qishlog'imizning 22 nafar o'g'loni bugun turli harbiy qismlarda ona yurt himoyasida ekanligini o'ylaganimda boshim osmonlarga yetgudek xursand bo'laman, faxrlanaman. Ular orasida polkovnik, mayor, kapitan, leytenant unvonida batalyon, bo'linmalarni jonfidolik ila boshqarayotganlar bor, o'nlab yoshlar harbiy bilim yurtlarida ta'lim olishmoqda.

Farzandlarining buguni va ertasini o'ylagan otalar qat'iyatli, talabchan bo'ladi. Urishmaydi, urmaydi, so'kmaydi. Mayda gap, yolg'onchi, dangasa bo'lmaslikni qon-qoniga singdiradi. Bizning padari buzrukvorimiz ana shunday inson bo'lganligidan faxrlanamiz. Otamiz bizga Qurolli Kuchlar safida bo'lish, mehnat qilishdan g'ururlanish, Vatan himoyachilariga yuksak hurmatda bo'lishni o'rgatib, qalbimizga ezgulik urug'larini qadadilar. Biz o'g'il-qizlar, nabira, abiralar otamizdan bir umr minnatdormiz, ruhlari shod bo'lsin, ilohim.

Habibullo ABDIRAHMONOV
Bekobod tumani,
"Nayman" mahallasi

MENING HAYOTIM MANZARALARI

*Haqiqiy vatanparvar zamon va makon tanlamaydi.
Vatanparvarlik o'rgatilmaydi, o'qitilmaydi.*



DALA-O'QUV MAYDONI

2012-yil yanvar. Nukus

Izg'irin shamol quloq chakkamiz aralash yalang'och qamchisini ayovsiz o'ynatib turibdi.

Shuv-shuv...

Yolg'izlikdan zerikkan chog'i dam o'tkir qamchisini o'ynatsa, dam qum barxanlarini qitiqlab to'zgitadi.

Mashinalar kolonnasi bilan allaqachon belgilangan hududdagi o'z o'rnimizni egallaganmiz. Majmuaviy radiostansiya ekipaji a'zolari talab etilgan me'yor bo'yicha mashqlarni bajarishga kirishgan. Ekipaj boshlig'i kichik serjant X. Egamberdiyev safdoshlarining harakatlarini ko'zdan qochirmagan holda aloqa kabellarini yoyish bilan ovora.

– 10 gradus shimoli-sharqqa...

Daydi shamol ta'siridan bir-birimizni zo'rg'a eshitamiz.

– Nimaaa?..

– Machta, machta (qo'l bilan antenna machtasining 10 gradus shimoli-sharqqa og'ib qolganiga ishora berdi)

– Ko'rddiim...

Quyun aralash uchib kelgan qum zarralari so'zlariga qorishadi. Tishlarimiz g'ichirlashiga ham e'tibor bermay harakatda davom etamiz.

– Yerlatgich o'rnatildi. Elektr manbasi qo'shildi.

Bu haydovchi-elektrikning menga bergan ishorasi edi.

Qurilma va uskunalarni qo'shib, radioaloqani o'rnatish oxirgi vazifa. Ulgurish kerak.

Nazariya va amaliyotning o'rtasida yer bilan osmoncha farq bor. Bugun negadir vaqt har doimgidan ko'ra tezroq yugurur, qurilma buragichlari qaysarlik qilardi go'yo.

– 1-2-3-4-5-6-7-8-9-0.

– SADO-1, SADO-1, SADO-2ga qabul.

– SADO-2, men SADO-1 qabul.

– BOR!

– BOR!

Yigitlarning shodon qiyqirig'i ko'kni tutdi. Ulgurdim.

– Tushgacha chodirlarni tiklab olishimiz kerak. Navbatchi aloqa rejimidamiz. Hushyor bo'linglar! Pechkani qo'shib qo'ydim, hozir "saroy"ingiz isib qoladi.

Ekipaj boshlig'ining g'amxo'rligiga sekingina minnatdorlik bildirib qo'yaman. Dala mashg'ulotlari yozda maza. To'g'ri, yozda issiq, bu payt ayozning keskirlikidan avlo. Birozdan so'ng kabinada o'tirgan kamina qiziydi, bu ham yetmaganday yonilg'i hidi. Noroziligimni oshkora bayon qilaman.

– Shuni sasitmay isitsa bo'lmaydimi?

– Dilnoz shukur qilmaysiz-a! Shukur qiling, sassisa ham bizda pechka bor. Ana qo'shnilarini pechkasi buzilgan, o'tiribdi dildirab.



– Shukur, deyman jilmayib. Darchadan qo'shni mashina tomonga qarab qo'yaman. Sovuqda qanday o'tirishibdi ekan. Tashqarida eshshak o'ldirar sovuq...

– Tushlik qilmaymizmi, qorin tatalab ketdi-ku, – eshikdan safdoshlarimdan biri ko'rindi. Shumligim tutib, luqma tashladim.

– Boyagi tuproqning mazasi yoqmadimi?

– Nega yoqmas ekan, tuproq axir Vatanim-ku, undan paydo bo'lganman, unga qaytaman! Undan bolaligimda onam yopib beradigan kulcha nonlarning ta'mi keladi.

Xijolatdan yer chizdim. Mashinadan sakrab tushib, sharqqa qaradim. Hu, o'sha kunchiqar tarafda mening uyim bor. U yerda onam qo'shnilarning qizlariga qarab, meni xayoliga keltiradi. Sog'inchim bosilarmikan, deb o'ylasa kerak. Maoshidan o'ziga bir narsa olmasa-da, bir yilda bir boradigan nabiralari uchun dunyoning narsalarini xarid qiladi.

Sovuqning zabtidan kipriklarimga qirov qo'nibdi. Shosha-pisha o'zimni yonilg'i hidi anqib turgan "saroy"imga urdim. Elas-elas esladim. Buvimning uyida pilikli chirog' bo'lardi. Bu o'sha, o'sha chiroqdan keladigan qadrdon hid-ku, muncha yoqimli bo'lmasa!

O'sha kuni menga o'n yil o'tib takomillashgan, yozda sovitadigan, qishda isitadigan qurilmalari bor zamonaviy mashinalarda shu pechkaning hidini sog'inib xizmat qilasiz, chidang va kuting, deysizsa, sira ishonmagan bo'lar edim.

TUSHLIK

– Sizga tushlik olib keldim, yangangiz yopib bergan qatlama patir. Choyingiz bormi?

– Ha, ha...

Hozirgina yonimda turgan termosni izlayman.

– Toshkentlik qizga Qoraqalpoqning sovuqlariga chidash qiyindir-a?

– Nega?

– Toshkentda qish bo'lmaydi, deysizda-da.

– Yo'g'ee... (o'ylayman)

Rostdan ham kasal bo'lmayapman-a?

2007-yil sentabr. Toshkent

– Jangchi, hoy jangchi.

Yondaftarchamdan boshimni ko'taraman. Xizmatga kelganimga uch kun bo'ldi.

Hali majburiyatimni yodlay olmayapman.

– Yuring, ovqatlanamiz.

Kotelolingizni oling!

Har qalay, uch kun ichida kotelok nimaligini, o'rin-joylarni qanday tartibga keltirishni o'rgatib qo'yishdi. Tushlikka makaron sho'rva bilan osh. Kotelokning qozonchasiga sho'rva, qopqog'iga osh solib berishdi. O'zimni xuddi kinolarda yurgandek tasavvur qilardim. Shu holatning ham o'zgacha jozibasini, rohati bor edi. Tushlikdan so'ng barcha o'z mashg'ulotlarini davom ettirishga, kaminangiz – oddiy askar Sulaymonova esa idish yuvishga buyurildirdi. Ichki qoida. Safdagi eng yosh harbiy xizmatchi.

Ikki kundan keyin qattiq shamollab qoldim. Tibbiyot punktiga boray, desam, turmush o'rtog'imning jahli chiqdi.

– Nima deb borasiz, armiyadagi safarim o'n kunga yetmay nihoyasiga yetdi. Harbiy xizmat mening taqdirim emas ekan, deysizmi? Kulishmaydimi?

KECHKI SAYR

Tun pardasi kun ko'zgusi ustidan tortilgan mahal, yulduzlar kechki sayrga chiqqan yurt o'g'lonlarining saf qo'shiqlarini tinglash uchun shoshilishar emish. Men kabi.

– Sovuqda nima qilib turibsiz tashqarida?

Tun qo'ynidagi uzun-kalta sharpalarga qaraganda safdoshlarim kechki yo'qlamadan qaytishgan ko'rinadi.

– Ha, keldilaringmi, yaxshi o'tdimi kechki yo'qlama?

– Ha.

– Yaxshi ko'raman! Saf qo'shig'i aytib, kechki sayrga chiqishni yaxshi ko'raman.

– Eshitdingizmi, yana bir harbiy xizmatchi qiz kelayotganmish bizning bo'linmaga, ko'payishib qolsalaring ayollar batalyoni tuzasizlar.

Yengil kulgi ko'tarildi.

BIROZ SHO'R TA'M, AMMO...

2023-yil. "Forish" tog' poligoni

"To'maris izdoshlari" ko'rik tanlovi.

– Bir, bir. Bir, ikki, uch.

Sanoq tovushiga hamohang qadam zarblari. Har gal bolalikda

yod olgan sevimli she'rim aynan, shu mahalda yodimga tushdi:

Qadamlar, qadamlar, og'ir qadamlar...

Etiklar zarbidan titraydi tuproq.

Qayerga ketmoqda, shuncha odamlar?

Nahotki, yo'llari shunchalar, yiroq!..

– Bir, bir. Bir, ikki, uch.

– Qani chempionlarim!

Qadamlar yanada shaxdam tus oladi. Bir guruhda saf tortib borayotgan ayollar oddiy ayollar emas. Ular Yangi O'zbekiston To'marislari. Bu yerga kelishning o'zi oson bo'lgan emas, bu safda turishning o'zi qahramonlik. Ne-ne sinovlardan toblanib o'tgan, ne-ne mashaqqatlarga ko'z yumib ketgan, ham ro'zg'orning, ham harbiy xizmatning nizomlarini so'zsiz bajarib kelgan. O'ziday vatanparvarlarni dunyoga keltirishni ham unutib qo'yamagan, jonfidolar.

– Bir, bir. Bir, ikki, uch.

Aniqlik va mavhumlik o'rtasida nima bor. Haqiqatmi? Bilmayman.

Anglaganim uchqun sochayotgan qadamlarning borar manzili aniq.

– Bir, bir. Bir, ikki, uch.

Shaxdam qadamlar tovushiga baraban sadolari jo'r bo'ladi.

– Bir, bir. Bum, bum.

– Bir, ikki, uch. Bum, gup, bum.

– Guruh, to'xta! Kechki yo'qlama uchun saflan!

O'ZBEKISTON

Tanangizni ming yillar chirmab turgan zanjirlar uzilganini his qilasiz. Yelkangizdan ikki qanot o'sganday, parvozga shay uchuvchiday ruhiy yengillik his qilasiz.

– O'zbekiston buyuk!.. O'zbekiston jonim!

Ichingizdan bir na'ra otilib chiqadi. Yuzingizda iliq bir nima o'rimalaydi, keyin lablaringiz biroz sho'r ta'mni his qiladi...

Tamshanasiz go'yoki tomog'ingiz qurib, bo'g'zingizga nimadir tiqilib qolganday bazo'r yutinasiz. Bu safda ne bir chig'iriqdan o'tganlar turibdi.

Men baxtning ko'rinishini bilmayman, bilganimda uni siz uchun chizib berardim.

Men baxtni, jangovar ruhni shunday his qilaman.

Kichik serjant

Dilnozaxon SULAYMONOVA



III darajali serjant Akbarjon AHMEDOV

*Shu yurtda tug'ildim, o'sdim, ulg'aydim,
Vatan, mehning bilan yetdim kamolga.
Bugun posboningman, gar kelsa g'anim,
Tayyorman, hatto jon etmoq nisorga.*

Podpolkovnik Sardor Vapayev xizmat qilayotgan harbiy qismdamiz. Qishning boshi bo'lishiga qaramay, qism hududiga qadam bosgan insonni tabiat go'zalligi, gul-u g'iyohlar, orastalik qarshi oladi. Posbonlar qo'li bilan yaratilgan landshaft dizayn uslubidagi tabiat mo'jizalarini ko'rib, bahridilingiz ochiladi. Harbiy xizmatchilar dam olish asnosida kitob mutolaa qilishlari uchun kitob javoni o'rnatilgan, o'rindiqli ayvonchalar o'ziga xos. Yurtimiz janubining chet hududida joylashgan harbiy qismdagi bu obodlik "Yashil makon" doirasida amalga oshirilayotgan islohotlar samarasining yaqqol namunasi, desak arziydi. Qismda muddatli harbiy xizmatni o'tayotgan o'g'lonlar bilan suhbatni mana shunday ko'tarinki kayfiyatda boshladik.

Ko'ksida Vatanga bo'lgan muhabbati jo'sh urib turgan posbongina uni mehr ila, yurakdan himoya qila oladi. Uning tinchligi, ozodligi yo'lida har qanday dovonni zabt etishga shay turadi. Bu farzandlik burchi atalmish aziz tuyg'u, bu Vatan hurligi, millat sha'nini asrash yo'lidagi ulug' qadriyatdir. Har gal posbonlar davrasida bo'lganimda ularning samimiy nigohi, harbiy libosda g'ururdan chaqnaq turgan ko'zlari, xizmatga shay turgan tik qaddida mana shu haqiqatni his qilaman. Va albatta, u haqda to'lqinlanib, maqolalar yozgim keladi. Bu gal ham shunday bo'ldi. Tanishing, hurligimiz va tinchligimizning yosh va g'ayratli qalqonlari – muddatli harbiy xizmatni o'tayotgan o'g'lonlar.

"ORZUM MAQSADGA AYLANDI"

oddiy askar Izzatulla HABIBULLAYEV



Yoshlik orzular shakllanadigan o'ziga xos davr. Yigit-qizlar ulg'ayib borgani sari, ularning qalbida kurtak otgan orzular ham ulg'ayib, mustahkamlanib, maqsadga aylanib boradi. Namanganning Chortoq tumanidan muddatli harbiy xizmatga chaqirilgan **oddiy askar Izzatulla HABIBULLAYEV** ayni fursatda harbiy bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirib, o'ziga bo'lgan ishonchi mustahkamlanib, maqsadi sari dadil intilayotgan posbonlardan. Uning orzulari ostonasida turgan omadli yigit, desak bo'ladi. Ya'ni dilidagi ezgu niyatlaridan biri muddatli harbiy xizmatdan so'ng posbonlik burchini kontrakt bo'yicha davom ettirishdir.

Izzatulla xizmatga kelgunga qadar Chortoq tumanidagi Kasb-hunar kollejida payvandchilik kasbini o'zlashtirgan. O'smir yoshidan boshlab sportning futbol turi bilan shug'ullangan, tuman va viloyatda o'tkazilgan musobaqalarda jamoasi bilan yuqori o'rinlarni qo'lga kiritgan. Harbiy xizmatga munosib bo'lish uchun o'zi ustida astoydil shug'ullangan shovvozlardan u.

– Barcha yigitlarga ham muddatli harbiy xizmatni o'tash nasib etmaydi, – deydi Izzatulla faxr tuyg'usi ila. – Bu yigit kishi uchun o'ziga xos katta sinov va unutilmas damlar. Harbiy libos kiyib, safda qadam tashlash, tantanali tarzda Vatanga qasamyod qilish, ilk bor haqiqiy quroldan mo'ljalga olish mashqini bajarish, safdosh do'stlar orttirish, barcha-barchasi hayotingga muhrlanadigan unutilmas onlardir. Albatta, xizmatning o'ziga xos qiyinchiliklari bor. Qat'iy tartib-intizomga rioya qilish, Umumharbiy nizom talablarini o'zlashtirish, nazariy va amaliy mashg'ulotlarni egallash kabi xizmat talablari katta mas'uliyat, bardosh va iroda talab etadi. Bu borada guruh komandirimiz leytenant Kamoliddin Abduraimov menga va safdoshlarimga yaqindan yordam berdi. Xizmat davomida ma'naviy-ma'rifiy, jangovar

Jonimizga payvand Vatan tuprog'i

va taktik tayyorgarliklarda yaxshi natijalarga erishganim uchun harbiy qism qo'mondonligi tomonidan faxriy yorliqqa ega bo'ldim. Maqsadim – xizmatni kontrakt bo'yicha davom ettirib, kelajakda harbiy soha vakili bo'lish.

Vazifasi – razvedkachi mergan bo'lgan yigitning safdoshlari orasida o'z o'rni va hurmati bor. Qo'mondonlikning faxriy yorlig'iga ega bo'lgani esa xizmatlari samarasidir. Shunday ekan muddatli harbiy xizmatda a'lochilar safida bo'lib, maqsadi tomon dadil intilayotgan odiy askar Izzatulla Habibullayevga orzulari ro'yobini tilab qolamiz.

"HARBIY XIZMAT HAQIQIY YIGIT BO'LISHNI O'RGATDI"

oddiy askar BEKMUROD MUHRIDDINOV



– Toshkent viloyatining Parkent tumanida voyaga yetganman, – deydi **oddiy askar Bekmurod MUHRIDDINOV**.

– Askar bo'lishni orzu qilmagan yigit bo'lmasa kerak. Men yoshlikdan shu orzu bilan ulg'aydim. Qishlog'imizda muddatli harbiy xizmatni o'tagan yigitlar sanoqli desa bo'ladi. Harbiy xizmatga saralash sinovlaridan o'tish uchun dunyoqarashi keng, jismonan sog'lom va chiniqqan bo'lish talab etiladi. Men ham shunga intildim va maqsadimga erishdim. Xizmat davomida esa granatomyotchi vazifasini puxta egalladim. Safdoshlarim bilan har doim nazariy va amaliy mashg'ulotlarni chuqur o'zlashtirishga harakat qilamiz. Do'stim odiy askar Jo'rabek Bahridinov ikkimiz sinovlarni yengib o'tishda bir-birimizga tayanch va hamjihatimiz.

O'quvchilik davrimdan boshlab sport bilan shug'ullanganman, voleybol, stol tennisi va futbolga juda qiziqaman. Harbiy qismda ham sport bilan shug'ullanishga yetarli sharoit bor. Xizmatdan bo'sh paytlari kitob mutolaa qilish, sport maydonchasida chiniqish, qism hududidagi ko'kalamzorlashtirish ishlariga hissa qo'shishga harakat qilaman.

Bekmurodning kelajak orzularidan biri muddatli harbiy xizmatdan so'ng Milliy gvardiya posbonlari safida qad rostlash. Vatan tinchligi va osoyishtaligini asrashda fidoyilar ila yelkama-yelka turish. Yurt himoyasiga kamarbasta bo'lishni istagan odiy askar Muhriddinovga zahmatli va sharafli yo'l nasib etsa ajabmas. Uning bu qaroridan ota-onasi Komil aka va Mahmuda opa faxrlanishiga ishonamiz!

"VATAN HIMOYASIGA DOIM MAS'ULMIZ"

oddiy askar ZAFARBEK MASHARIPOV



Muddatli harbiy xizmatni o'tayotgan odiy askarlar xizmat borasida o'z so'zi, qat'iy fikriga ega. Axir ular yaqin bir yil davomida xizmat sinovlarida

to'landi, harbiy bilim va majburiyatlarni o'zlashtirdi. Shu asnoda kelajak rejaralarini belgilashdi. Qaysi bir askar bilan suhbatlashmaylik, dunyoqarash va fikrlarida bir xil uyg'unlikni his qildik: askar bo'lganidan faxrlanish, ota-ona qadriga yetish, mustahkam iroda va hayot sinovlarini yengib o'tishga tayyorlik. Darhaqiqat, Xorazm viloyatining Xazorasp tumanidan muddatli harbiy xizmatga chaqirilgan **oddiy askar Zafarbek MASHARIPOV** ham dadilligi, oldiga qo'ygan kelajak rejalari, dunyoqarashi kengligi bilan e'tiborimizni tortdi.

– Xizmat o'tashimizdan asosiy maqsad Vatan himoyasiga qodir bo'lish, – askarlik burchi haqida to'lqinlanib fikr bildiradi Zafarbek. – Shubhasiz, buning uchun komandirlarimiz tomonidan o'rgatilayotgan nazariy va amaliy mashg'ulotlarni, harbiy bilim hamda ko'nikmalarni egallashimiz shart. Askarlik burchimizni o'tab bo'lgach, qaysi vazifada faoliyat yuritmaylik, Vatan himoyachisi bo'lib qolamiz. Shuning uchun menga yuklatilgan pulemyotchi vazifasini puxta o'zlashtirishga intilayapman. Dala-o'quv maydonida o'tkazilgan jangovar va taktik tayyorgarlik sinovlarida yuqori natijaga erishganim uchun qo'mondonlikning "Eng yaxshi nishonga oluvchi" faxriy yorlig'iga ega bo'ldim. Bu e'tirof men uchun faxrli, albatta. Xizmatimiz yakunlanishiga sanoqli oylar qoldi. Odiy askarlar Baxtiyor Jumaniyazov, Alpomish Abdurahimov, Jasurbek Erkinov, Nurali Sayfiyev kabi safdoshlarim bilan xizmatni namunali o'tab, oldimizga qo'ygan maqsadlarni amalga oshirishga, do'stligimizni asrashga ahd qilganmiz. Men Toshkent davlat yuridik universitetiga kirib, qonun himoyachisi bo'lishni, davlatimga, xalqimga xizmat qilishni niyat qilganman.

Ulug' niyat, ulug' maqsadga erishishning zalvarli talablari bor, albatta. Donishmandlar ta'kidlaganidek, insonda ezgu niyat, ezgu harakat uyg'un bo'lsagina, maqsad ro'yobiga yo'l ochiladi. Yigitlarimizning barchasini o'ziga xos orzu intilishlari, ulug' maqsadlari bor. Bilim, g'ayrat, iroda va intilish ularda mujassam ekan, yurtning yetuk insonlari safida bo'lishlariga shubha yo'q.

Zulfiya YUNUSOVA,
"Vatanparvar"

Bir xalqning yaxshi kitobi ikkinchi bir xalqning ham – u qanchalar olis manzilda bo'lmasin, ma'naviy mulkiga aylanib ketadi. So'z malham bo'lib, tomir-tomirlarga singib borveradi. Bugun deyarli bolalagimdan beri meni hayratlarga oshno qilib kelayotgan ulug' turkman shoiri Maxtumquli (Firog'iy)ning ijodi xususida so'z yuritmoqchi bo'ldim.



KOMILLIKKA CHORLOVCHI SO'Z



O'z xalqning bulbuli sifatida dovruq qozongan bo'lg'usi shoir 1733-yilda Turkmanistonning janubi-g'arbida, Atrek daryosi bo'ylaridagi Hojigovshon qishlog'ida dunyoga keldi. Uning otasi Davlatmamad ziyoli kishi bo'lib, Xivadagi Sherg'ozixon madrasasida yoshlarga saboq berar, o'zi ham "Ozodiy" taxallusi bilan ijod qilib kelardi. Uning "Va'zi Ozod" nomli kitobi bugun ham avlodlar qo'lida. Albatta, ziyoli oilada kamol topgan bo'lg'usi shoir ham avval qishloqdagi ovul maktabida, keyinroq Sherg'oz va Buxoro madrasasida ilm oladi va davrining yetuk farzandi sifatida kamol topadi.

Shoirning she'rlarini hali savodim chiqmasidan radiodagi qo'shiqlar orqali eshitgan va undagi insoniy xislatlar tarannumini ko'rib, yuqorida aytganimdek, hayratlangandim. Hayratimga sabab bo'lgan jihat esa satrlarning o'ta xalqchilligi, aytilmoqchi bo'lgan fikrning ostida teran ma'no borligi edi. Maktabga borganimda Maxtumqulining turkman shoiri ekanini bildim. Va shunday ulug' mutafakkiri yetishtirib bergan qardosh xalqqa nisbatan hurmatim ortdi. 10-sinf adabiyot kitobida shoirning nasihatimiz she'rlari keltirilgan bo'lib, ularni bir o'qishdayoq yodlab olgandim:

*Kel, ko'nglim, men senga nasihat aylay,
Vatanni tark etib ketuvchi bo'lma,*

deb saboq bergandi o'shanda ulug' qalamkash. Va bu kabi so'zlarni men va sinfdoshlarim jon qulog'i bilan tinglardilar.

"Vatanni tark etib ketuvchi bo'lma". Ehtimol, bu ma'lum ma'noda musofirlikni boshdan kechirgan insonning hayotiy tajribasi asosidagi xulosadir.

Maktabni tugallab, Andijon davlat universiteti qoshidagi akademik litseyga borganimda, bevosita universitet muallimlari bilan muloqotda bo'lish baxtiga erishdim. Ular orasida hozirgi akademik Sirojiddin Zaynobiddinov, tibbiyot fanlari nomzodi marhum ustoz Lutfullo Qosimov, biologiya fanlari nomzodi Anvar Ummatov va boshqalar bor edi. Oliy o'quv yurti axborot-resurs markazining o'sha vaqtdagi rahbari Jamila opa Jalolovning mehribonligi bilan faqatgina men eski binoning yerto'lasiga tushishga muvaffaq bo'ldim. Shu yerda Maxtumqulining 1950-yillarda nashr qilingan bejirim kitobini uchratdim. Qiziqib, uyga olib ketib o'qidim. Bu orada shahrixonlik ma'rifatparvar tarixchi Haybatullo Faxriddinov shaxsiy kutubxonasidagi katta bir majmua bilan tanishdim. Shunda Maxtumqulining nafaqat yurt kuychisi, ayni chog'da otashin muhabbat baytlari muallifi, faylasuf, ilohiy tuyg'ular sohibi sifatida ham kashf etdim. Darslikda o'quvchilarning dunyoqarashidan kelib chiqib she'rlar berilgan bo'lsa, bu kitoblarda shoir ijodi bor bo'y-basti bilan namoyon bo'ldi. Eng muhimi shu ediki, shoir ijodi o'quvchini chin inson, mard vatanparvar, botir, adolatli shaxs bo'lib shakllanishga chorlardir.

Chunonchi:

*Birov bilan oshna bo'lay desangiz,
Avval iqrorinda turishin ko'ring.*

Yoki:

*Ko'ngli qora bilan bo'lmanglar ulfat,
Yuqar undan turli-tuman kasofat.*

Yana:

*Izzat-hurmat hech kutmagin,
Ko'rim ko'rilmagan yerda.*

Maxtumquli, ayni chog'da, muhabbat haqida ham to'lib-toshib kuylaydi. Sevgan, ammo vasliga yetisholmagan Menglixon ismli ma'shuqasini imlda, insoniylikda, go'zallikda benazir ekanligini, shunday malohat va zakovat sohibidan ayrilgani hayotida chuqur iztiroblarga sabab bo'lgani haqida yozadi:

*Shirin jonda o'yqudir toqat,
Jabri uning jonga rohat,
Qoshlari fitnayi ofat,
Chashmi xunxo'rdan ayrildim.*

Shoirni taqdir shu bilan sinab, cheklabgina qolmaydi, balki uni boshqa yaqinlari, jigarlaridan ham judo qiladi. Bu judoliklarga, hayotdagi odatiy turli qarama-qarshiliklar, nodon kishilarning fitnalari, g'iybatlari, dilozorliklari ham qo'shimcha yuk bo'lib, shoir bag'rini ezadi, nozik ko'ngliga tig' bo'lib sanchiladi. Shuning uchun u insonlardagi har qanday ezgu xislatlarni va ularning sohiblarini ulug'laydi, aksincha ayyor, g'iybatchi, chaqimchi, dilozor, ko'ngli qora odamlarga nafratini sochadi. Va bunday kishilarning u dunyo-yu bu dunyo kosasi oqarmasligini ta'kidlaydi. Shoir bu besh kunlik o'tkinchi olamda olam va odamning, hayotning qadriga yetishga, o'lchovlik umrni yaxshi ishlarga safarbar qilishga chorlaydi:

*Cho'lda ochlik mashaqqatin ko'rmagan,
Uyda issiq nonning qadrin hech bilmas,*

deydi u. O'z zamondoshi Durdi shoir bilan musohabasida ham ko'plab hayotiy masalalarga to'xtaladi.

Maxtumqulining ko'plab she'rlari yuqorida aytilganidek, ilohiy tushunchalar bilan sug'orilgan va shubhasiz, ularning avvalida payg'ambarimiz Rasuli Akram (s.a.v)ni tushlarida ko'rganlari bayoniga bag'ishlangan: "Bir kecha yotardim,

tunning yarmida, To'rt suvoriy kelib, turgil, dedilar", misralari bilan boshlanuvchi she'ri turadi. Demak, bu kabi she'rlardan, Maxtumqulining tom ma'noda valiy zot, Haqqa yaqin insonlardan ekanini anglash qiyin emas. Boshqa bir tarjimayi holiga oid she'rida ham yoshligidan "Qur'on" o'qiganligini aytadi. Ajab emaski, shu boisdan ham uning ko'p misralari hadislar bilan muvofiq keladi. Insonlarni yaxshilikka da'vat qiluvchi she'rlarining o'ziyoq bu fikrni qo'llab-quvvatlaydi. Shoir, shuningdek mamlakatdagi barcha urug' va qavmlari – zamondoshlarini, balki keyingi avlodlarni ham yakdillikka, hamjihatlikka chorlaydi. "Og'ziolalik ayirar elni birlikdan", deb yozadi u. Uning bu so'zlari, chorlovlari, ayniqsa bugungi globallashuv zamonida har qachongidan ham ulkan ahamiyat kasb etishi sir emas. Boborahim Mashrab bir o'rinda: "Sayidsan, xojasan, zinhor mag'ruri nasab bo'lma", deb uqtirsa, Maxtumquli:

*Qadrdon qardoshdan uzoq, dosh bo'lib,
Qadrsiz yot bilan qarindosh bo'lib,
Maxtumquli, nosozlarga duch bo'lib,
Xo'janing, sayidning yurishin ko'ring,*

deydi. Ushbu va boshqa satrlar uning o'zidan oldingi barcha salaf tarqatqiyparvar yuksak g'oyalari tarannumini sidqidildan davom ettirganini ko'rsatadi. O'quvchi shoir satrlarini o'qir ekan, biridan zavq oladi, biridan esa hayotiy o'g'it. Ulug' mutafakkir ijodida insoniylik vasfi alohida muhim o'rin egallaydi. Shu jihatdan olib qaraganda, uning bitiklarini komillikka chorlovchi so'nmas mayoq, deb baholash mumkin.

Aksari hollarda "falakdan g'am bodasi"ni ichgan va bu sinovlarga bardoshli shoir bir o'rinda "Qo'lyozma kitobin selga oldirgani"ni kuyunib aytadi. Xulosa qilish mumkinki, qanchadan qancha noyob fikrlar, xalqona aytilmalar o'sha suvlar qatida sarob bo'lgan. Biroq bizgacha yetib kelgan shoir merosining o'ziyoq uning nomi barqarorligiga kafolat bo'lib turibdi. O'tgan asr 50-yillaridan buyon o'zbek tilida Maxtumquli asarlari qayta-qayta nashr qilindi va qilinmoqda. Biroq shoir she'rlarining Ergash Ochilov va Mirzo Kenjabek tarjimasidagi variantlari muvaffaqiyatli chiqmagan. Ular avvalgi tarjimonlar amalga oshirgan tarjimalarning u yo bu satrini o'zgartirish bilangina cheklanganlar. Masalan, ilgari tarjimada bir she'ning misralari:

*G'ussa bilan dona-dona ko'zingdan,
Achechiq yoshlaringni to'kkancha
bo'lmas,*

deb berilsa, Mirzo Kenjabek:

*G'ussa bilan dona-dona ko'zingdan,
Achechiq nadomating to'kkancha
bo'lmas,*

deb qo'yaqoladi. Nadomat – afsus demak. Ko'zdan nadomat to'kilishi bizningcha, o'quvchiga erish tuyuladi. Shu sababli ham shoir she'rlarini kuyga solgan ustoz hofizlarning barchasi buguncha o'sha ilk tarjimalardan foydalanadilar. Maxtumquli qalamiga mansub dilbar she'rlar, oshiqona misralar Komiljon Otaniyozov, Murodjon Ahmedov, Kamoliddin Rahimov, Ahmadjon Shukurov, Ahmadjon Dadayev, Kamoliddin Rahmatov va boshqa ko'plab san'atkorlar ijod bisotidan o'rin olgan.

Tavalludiga 290 yil to'lgan ulug' turkman shoiri Maxtumqulining ijodi yana asrlar o'tsa-da, minglab muxlis ko'ngillarni rom etib borajagiga aslo shubha yo'q. Kishilik jamiyatining eng ilg'or vakillari, tarqatqiyparvar adiblari qatorida uning merosi ham mangulikka doxil ekani ayni haqiqat.

BO'LAR BOLA

BOSHIDAN MA'LUM

Inson kamolotida onaning o'rni beqiyos. Ayol-qizlarning ilm-ma'rifatiga e'tibor bergan ellar kam bo'lgani yo'q.

O'qimishli onalar nafaqat oilaning, balki millatning, yurtning ham baxti. Farzandining iqtidorini, uning nimalarga qodirligini anglab, ularni yuzaga chiqarishga, shakllantirishga intilgan ayolning mehnatlari samarasiz ketmaydi. Natijasi ham uzoq kuttirmaydi.



Kuzning so'nggi kunlari Surxondaryo viloyati bo'yab ijodiy safarda bo'ldik. O'sha kunlari havolar isib ketdi. Balki bu janubga xos holatdir. Kuzning so'ng kunlari bo'lishiga qaramay yashillik shu qadar ko'pki, ayniqsa tut daraxtlari yam-yashil, kuzni pisand qilmayotgandek. Tabiati betakror. Boysun tarafga o'tganda anorzorlar ko'p ekan. Har bir xonadonda bor. Uzoqdan benihoya sirli ko'rinadi: uylar sap-sariq olov ichida qolgandek, lovullab ko'rinadi.

Tabiatni sevsam-da, ko'proq vaqtim shahar ichida, viloyat markazi Termizda o'tdi. Yurt xizmatidagi ko'plab yaxshi insonlar bilan ko'rishdim, suhbatlashdim, oshxonada ishlaydigan, do'kondor ayollar bilan ham tanishdim. Hammalari o'ziga xos insonlar, umumiy o'xshashliklari – fidokorlik!

Shahardagi harbiy qismlarning biri. Juda serdaraxt ekan. Bizga hamrohlik qilayotgan opaga shuni aytsam: "Nima eksangiz, qanday daraxt eksangiz ham unib-o'sadi, Termiz tuprog'i shunday qutlug' tuproq..." Maydonchadagi vertolyot hamkasbimning e'tiborini tortdi. Opaning aytishiga qaraganda, 2000-yil janubiy sarhadlarimizga suqilib kirgan jangari to'dalarga qarshi jangovar harakatlarda foydalanilgan ekan. Shundan keyin vertolyotga zehn solib qaradim: horg'in, tanasida chandiqlari ko'p kekxa jangchiga o'xshab ko'rindi, ko'zimga. Kekxa bo'lsa ham jangchi baribir jangchi-da!

Chalg'ib ketyapman. Bu yerga "Harbiy xizmatchilar oila a'zolariga tikuvchilik kasbini o'rgatish maskani" ishi bilan tanishish maqsadida kelgan edik. Ko'rimsizgina eshikdan keng va yorug' ustaxonaga kirib bordik. O'rgatuvchi usta bilan tanishtirganlarida lol bo'lib qoldim. Bu kishini lol qiladigan yangilik emas, aslida. Yaratgan liboslari bilan dunyoga mashhur bo'lgan erkaklar ham talaygina. Rostini aytsam, harbiy xizmatchilar orasida tikuvchilikni mahorat bilan o'rgatadigan, shu kunga qadar yuzlab shogirdlarni yo'lga solgan ustani ko'rish xayolimiga ham kelmagan edi. Kichik serjant Akbar Mavlonovni serqirra ijodkor, desak, aslo mubolag'a bo'lmaydi.

BOLALIK

Onasini diqqat bilan tinglayotgan kichkina Akbarning ko'zlari tikuv mashinasiga qadalgan. Onaning qo'llari

chaqqon, barmoqlari sehlriga o'xshaydi. Hayal o'tmay laxtaklardan chiroyli kiyimlar paydo bo'ladi. Bola onasini kuzatishdan zavq oladi, bu manzaradan hech zerikmaydi. O'zi ham ul-bul narsalarni tikishga urinadi.

Bir kuni onasi u bilan jiddiy gaplashdi.

– Tikuvchilikni o'rgansang, yaxshi bo'lar edi...

– Ayajon, hamma ustimdan kulsinmi?

– Shim tikishni yaxshi eplayapsan, bir urinib ko'r. Undan keyin qo'lidan hech qanday ish kelmaydiganlarning kulgusi nima bo'lardi? Ham hunarli bo'lasan, ham pul topasan. Senda yangiliklar yaratishdek ajoyib iqtidor bor. Uni qadrlab, o'rmini topib ishga solishning ayni vaqti hozir.

Bola onasiga ishonadi. Juda tez muvaffaqiyat qozondi.

Qarshi shahrining turli chekkalaridan unga "zakaz" tusha boshladi. Kattalardek pul topa boshladi. Onasiga bergan edi, rad etdi. "Bu seni mehnating evaziga topilgan. O'zing aql bilan sarf qil!" Baribir bola bola-da, pullarini mashina olish uchun yig'a boshladi.

Kunlarning birida yig'ilayotgan pullarni otasi topib oldi. Anchagina edi, otaning xayolidan ming bir o'y kechdi: "O'g'irlab oldimikan?" Onasi vaziyatni tushuntirganida ota lol qoldi. Shunchaki havas bo'lsa kerak, deb o'ylar ekan. Pullarni o'g'liga qaytargan edi, olmadi: "Hali kichkinaman, mashina menga mumkin emas. Siz ola qoling". Ota bu pullarni farzandining o'zi uchun sarfladi.

O'shanda u 12(!) yoshda edi.

ONA YODI

– Oilada ikki qiz, ikki o'g'il ulg'aydik, – deydi biz bilan suhbatda kichik serjant Akbar Mavlonov. – Bekor vaqtimiz bo'lmagan. Maktabdan keyin to'garaklar, sport seksiyalariga qatnar edik. Ayajonim qattiq nazorat qilar edilar. O'zlari ham mehnatkash bo'lganlar, ishlab keldim, charchadim demasdilar, yaxshigina tikuvchi ham edilar. Ancha yillar 7-harbiy savdo tashkilotida bosh hisobchi lavozimida ishladilar. Lavozimlari oshirilar ekan, degan xushxabardan hammamiz sevinib turgan bir paytda, to'satdan olamdan o'tdilar... Oilamiz uchun juda og'ir ayriliq edi... Onasiz g'arib bo'lib qoldik.

Armiyaga hurmatim yuksak. Ayajonim vafot etganlarida harbiy tashkilotdagilar: "Surayyoning bolalari yosh, ularning kelajagiga biz mas'ulmiz, ishiga, o'qishiga ko'makchi bo'lishimiz kerak", debdilar. Haqiqatan ham hammamizning oyoqqa turishimizda yordamchi bo'ldilar.

Surayyo Tog'ayeva 44 yoshida olamdan o'tdi. Uning farzandlari yolg'izlanib qolmadi. Mudofaa vazirligining ibrat bo'larli ezgu ishlari ko'p. Shulardan biri bolaparvarligi! Tizimda mehnat qilgan harbiy xizmatchi yoki xizmatchi vafot

etganida ularning oilasini yolg'izlatmasdan, moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlashi tahsinga sazovordir!

USTAXONADA

Hayot bir joyda to'xtab turmaydi. Har sohada o'zgarish, yangilanishlar kechadi. Harbiy xizmatchilarning kiyim-kechaklari ham o'tgan yillar davomida bir necha bor o'zgardi, zamonaviylik kasb etdi. Sifatga e'tibor qaratilmoqda.

Bugun hayotimizni kompyuter texnologiyalarisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Ayni holat tikish-bichishga ham tegishli. Ish quroling soz bo'lsa, mashaqqating oz bo'lar, deydi dono xalqimiz. Buni "Harbiy xizmatchilar oila a'zolariga tikuvchilik kasbini o'rgatish maskani" rahbari kichik serjant Akbar Mavlonov hammadan ham yaxshiroq biladi.

2018-yilning oxiri 2019-yilning boshlarida zamonaviy usulda tikilgan kepka Mudofaa vazirligi rahbariyati tomonidan tasdiqlandi. Mazkur kepka avvalgilaridan a'lo sifati, tikilishining bejirimligi bilan alohida ajralib turadi. Bu, albatta, iste'dodli usta Akbar Mavlonovning mehnatlari mahsulidir. Bu hali hammasi emas. Aynan zamonaviy dastur orqali pogonlar, timsollar aniq o'lchamlar bilan harbiy kiyimga tikilmoqda. Bular tez o'ngib ketmasligi, qulayligi, yarashiligi bilan e'tiborlidir!

– Bu yo'nalishda g'oyalarim ko'p, – deydi Akbar Mavlonov. – Tikuv ustaxonasining zamonaviy texnikalar bilan jihozlanishi yangidan yangi g'oyalarning hayotga tatbiq etilishiga sabab bo'ladi. Bu har bir hududning iqlim sharoitlariga mos, zamonaviy, yuqori sifatli harbiy kiyim-kechaklar deganidir.

BUGUN

Bu maskanning ishga tushirilishi polkovnik Po'lat Sotvoldiyevning tashabbusi bilan amalga oshirildi. Tikuvchilik hunarini o'rgangan bir qator ayol-qizlar bugun o'z ishlariga ega. Bu yerda tikuvchilik sirlarini o'rganish asnosida buyurtmalar qabul qilish imkonini ham bor. Zehnli, tezkor, mohir bo'lsangiz salmoqligina maosh ham olasiz.

Husniya Hamroyeva institut talabasi. Bo'sh vaqtlarida kelib, hunar o'rganyapti. Ustaning talaba shogirdidan ko'ngli to'q.

Usta Akbar Mavlonov Nazokat Rahmonovani "Eng qobiliyatli shogirdlarimdan", deb tanishtirdi.

Klara Yarashevaning bu yerga kelganiga hali ko'p vaqt bo'lgani yo'q. Uning eri xizmat burchini bajarish chog'ida halok bo'lgan. Bittagina farzandi bor. Tikuvchilik bilan ilgari ham shug'ullangan. Ayni kunda ustaga yordamchi bo'lib, o'zi ham shogirdlar tayyorlamoqda.

Shu yerda so'zimizni muxtasar qilib, usta Mavlonov va uning shogirdlariga omad tilaymiz.

Inobat IBROHIMOVA,
"Vatanparvar"

ALPLAR SAFIDAGI CHEMPION AYOL

– Dada, dadajoon, – yetti yoshli Shohidaning yalinchoq tovushi xizmatga shoshilayotgan G'oziboy akani sergaklantirdi.

– Nima deysan, asal qizim?

– Men ham Tohir akam bilan sport to'garagiga borsam maylimi?

– Juda yaxshi, gimnastikaga borasanmi qizim?

– Yo'q, men ham akamdek karatechi bo'lmoqchiman...

G'oziboy aka erka qizining iltimosiga ko'ndi. Onasi Ozoda opa ham rozi bo'ldi. Shohidani tuman markazidagi sport to'garagiga berishdi. Endi u akasi bilan to'garakka birga boradi, kerak chog'da undan o'rganadi. Shunday qilib, qizaloq besh yil davomida sportning karate yo'nalishida saboq oldi.

ORZULAR TOMON YO'L

Shohida ulg'aygani sari orzulari ham ulg'ayib bordi. O'smir yoshiga yaqinlashganidan so'ng sport bilan qayta shug'ullanmadi. Umumta'lim maktabini bitirgach, muallimlik kasbini egallashga qaror qildi. Sirtidan o'qishga kirdi va ma'lum vaqt o'tib, maktab o'quvchilariga saboq bera boshladi. U kasbiga qay darajada mehr ila yondashmasin, qalbi boshqa sohaga intilib turardi. Harbiy libos kiygan ayollarni ko'rdi deguncha, yuragi boshqacha ura boshlardi. Axir otasi ham ichki ishlar xodimi bo'lgan, mas'uliyatli vazifalarda faoliyat yuritgan. Balki shu sabab u harbiylar safida bo'lishni istar.

Yaqinlari Shohidaning maqsadini qo'llab-quvvatlashdi, ne bo'lganda ham sevgan sohasida faoliyat yuritganga nima yetsin. U niyatiga erishish uchun dadil harakat boshladi, kerakli joylarga murojaat qildi. Shundan so'ng Andijon shahridagi mudofaaga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti qoshidagi aloqachilar kursida olti oy kasb sirlarini egalladi. 2004-yil noyabr oyida Shohidaxon Gopparova kontrakt bo'yicha harbiy xizmatchi, oddiy askar sifatida Havo hujumidan mudofaa qo'shinlari va Harbiy havo kuchlari qo'mondonligi tasarrufidagi harbiy qismga xizmatni boshladi.

SPORT BILAN HAMNAFAS

Qaddi-basti yigitlarnikidek tik, jismonan baquvvat, xizmatda ham, gapda ham o'zgalarga yon bermaydigan Shohida jismoniy tayyorgarlik sinovlaridagi a'lo natijalari sabab qo'mondonlikning jismoniy tayyorgarlik bo'limi boshlig'i podpolkovnik Ravshan Madaminov (*hozirda iste'foda*) nazariga tushdi. "Bu qizdan yaxshi sportchi chiqadi, armiya o'yinlarida qatnashishi kerak", xayolidan o'tkazdi u. Shunday qilib Shohida ayollar o'rtasida o'tkaziladigan sport musobaqalariga jalb etildi. U ishtirok etgan yugurish, voleybol, basketbol bellashuvlarida guruh doim yetakchi o'rinlarni qo'lga kiritardi. Omad, g'alaba nashidasi ular tomonda bo'lardi.

2014-yili Xalqaro armiya o'yinlariga qo'l kuchini sinash – armrestling kiritildi. Havo hujumidan mudofaa qo'shinlari va Harbiy havo kuchlari qo'mondonligining jismoniy tayyorgarlik bo'limi boshlig'i podpolkovnik Sanjar Ganjakov armrestling yo'nalishidagi bellashuvlarga Shohida Gopparovani eng yaxshi nomzod deb bildi. U yanglishmagandi. Bir oy tayyorgarlik ko'rgan, Shohida 2014-yili Mudofaa vazirligi hamda Madaniyat va sport vazirligi hamkorligida armrestling bo'yicha o'tkazilgan O'zbekiston chempionatida ellikdan ziyod nomzodni ortda qoldirib, g'oliblikni qo'lga kiritdi.

Lavhamiz qahramoni ilkidagi xizmat vazifasini uddalashda safdoshlariga har doim o'rnak bo'lib kelgan. 2017-yili "Eng ilg'or plantshetchi" diplomi bilan taqdirlangani fikrimiz dalildir. Mas'uliyatli vazifa bilan birga, sport musobaqalarida ishtirok etayotgan Shohida bellashuvlarga har gal o'ziga bo'lgan ishonch, harakat va tayyorgarlik ila yuzlanardi. 2016-

yili O'zbekiston chempionatida ishtirok etayotgan vazirliklar safi kengaydi.

Shohida Gopparova 2016–2018-yillarda O'zbekiston Respublikasi Mudofaa, Ichki ishlar, Sog'liqni saqlash, Madaniyat va sport, Xalq ta'limi, Moliya, Qishloq va suv xo'jaligi vazirliklari hamda Chegara qo'shinlari va Bojxona qo'mitasi o'rtasida o'tkazilgan O'zbekiston chempionatida ishtirok etdi. 176 nafar olovqalb, bilagi kuchli sportchilarni yengish oson emasdi. Ammo bizning ortga chekinmas qahramonimiz buni uddaladi. 2016–2018-yillar armrestling yo'nalishida chempionatning mutlaq g'olibi bo'ldi. 2020-yili "Harbiy sportchi" ko'krak nishoniga munosib topildi.

"DOVYURAK JANGCHI"

2023-yili aloqa seksiyasi katta mexanigi kichik serjant Shohida Gopparova uchun omadli keldi, desak arziydi. "Forish" poligoni, sentabr oyi. Dala-o'quv maydoni harbiy xizmatchi va mehmonlar bilan gavjum. Mudofaa vazirligi tizimida xizmat qilayotgan harbiy xizmatchilar o'rtasida "Dovyurak jangchi" hamda harbiy ayollar ishtirokida "To'maris izdoshlari" ko'rik-tanlovlari bo'lib o'tmoqda.

Havo hujumidan mudofaa qo'shinlari va Harbiy havo kuchlari qo'mondonligi vakillari orasida "To'maris izdoshlari" bellashuvida Shohida Gopparova ham bor. U guruh boshlig'i sifatida jonkuyarligi bilan ajralib turibdi. Ko'rik-tanlov harbiy ayollarni har tomonlama sinovdan o'tkazdi. Harbiy va jismoniy tayyorgarlik, onalik va bekalik mas'uliyati, zukkolik hamda ijodkorlik... Shohida ko'rik-tanlovda nafaqat ayol, balki yigitlardek shijoat ila harakat qildi. Uning bu fidoyiligi hakamlar nazaridan chetda qolmadi.

Tanlov so'ngida poligonning katta yig'inlar zalida har ikki ko'rik-tanlov ishtirokchilarini taqdirlash marosimi bo'lib o'tdi. Barcha hayajonda, kimni qanday e'tirof kutmoqda. Birin-ketin qarsaklar ostida tanlov qahramonlari nomi aytila boshlandi. Kutilmaganda, kichik serjant Shohida Gopparova "Dovyurak jangchi" ko'krak nishoniga munosib topilgani e'lon qilindi. Butun zal o'rnidan qo'zg'aldi, qarsaklar jarangi atrofni tutdi. O'sha onlarni u quyidagicha ta'riflaydi:

– Bilasizmi, nomim e'lon qilinganda bir muddat qotib qoldim. Nahotki menga "Dovyurak jangchi" ko'krak



Bahrom ABDURAHIMOV

nishoni berilyapti, degan hayajonda qadam bosa olmasdim. Atrofimdagi yaqinlarimning daldasi bilan sahnaga ko'tarildim. Mudofaa vazirligi Jangovar tayyorgarlik bosh boshqarmasi boshlig'i polkovnik Rahmatulla Rahmonov tomonidan sharafli mukofotni qabul qilib olar ekanman, uning harbiy ayollar haqidagi ezgu fikrlari dilimga muhrlandi.

UNI JAHON CHEMPIONATI KUTMOQDA

Joriy yilning noyabr oyida Samarqand shahrida sportning armrestling yo'nalishida Osiyo chempionati o'tkazilishi belgilandi. O'zbekiston armrestling sport klubiga a'zo bo'lgan kichik serjant Shohida Gopparovani qo'mondonlikning jismoniy tayyorgarlik bo'limi boshlig'i podpolkovnik Jamshid Murodov mana shu nufuzli tanlovga tayyorladi. O'n kilodan yigirma besh kilogacha bo'lgan toshlarda qo'lni, jismoniy mashqlar orqali tanani chiniquitirish, kalloriyal oziq-ovqatlarga e'tibor qaratish kabi talablardan o'tgan sportchi qizimiz 21ta davlatdan qatnashgan sportchilar safidan joy egalladi.

Har bir davlatdan ellikka yaqin sportchi ishtirok etganini inobatga oladigan bo'lsak, Osiyo chempionatida birinchi bor qatnashayotgan Shohida uchun bu juda katta sinov edi. Ikkinchi tomoni uning raqibalari asosan bir necha bor jahon chempioni bo'lgan sportchilar. Chempionatga start berildi, murosasiz bellashuvlar boshlandi. Shohida raqibalarini birin-ketin mag'lubiyatga uchrata boshladi. Chempionat so'ngida u mutlaq g'olib deya e'lon qilindi. Yevropa davlatlaridan tashrif buyurgan sudyalalar hayratda: "Bunday bo'lishi mumkin emas. Osiyo o'yinlarida birinchi bor

qatnashayotgan ayol qanday qilib, jahon chempionlarini yenga oladi. U qayta sinovdan o'tishi kerak." Sudyalalar e'tirozi qondirildi, ayol sportchilarni mag'lub etgan Shohidaga armrestlingda jahon chempioni bo'lgan hindistonlik va eronlik ikki sportchi erkak raqib bo'ldi. U sudyalalar ko'z o'ngida erkaklarni mag'lub etib, g'olibligini isbotladi va 2024-yilning bahorida bo'lib o'tadigan jahon chempionatiga yo'llanma oldi.

– Osiyo chempionatida g'olib bo'lishimda atrofimdagi ko'plab mehribon insonlarning katta hissasi bor, – deydi kichik serjant Shohida Gopparova. – Iste'fodagi podpolkovnik Ravshan Madaminov, podpolkovniklar Sanjar Ganjakov, Jamshid Murodov, Qurolli Kuchlar xizmatchilari Zulfiya Mansurova, Hilola Tursumatova, kontrakt bo'yicha harbiy xizmatchi, oddiy askar Nilufar Dustmurotova juda katta tayanch bo'lishdi. Qolversa, ota-onamning duolari, farzandlarim mehri menga dalda bo'ldi. Maqsadim – jahon chempionatida ham yurtimiz bayrog'ini ko'klarga ko'tarish.

Ayol – nozik xilqat. Ammo u jazm etsa, ulug' ishlarga qodir zot. Uch farzandning onasi bo'lgan Shohida bugun ayollik baxtidan masrur. Uning katta o'g'li Abdullatif Ichki ishlar akademiyasida tahsil olmoqda. Ozodbek va Gulsanam maktab o'quvchilari. Ular a'lo o'qish bilan bir qatorda sport bilan shug'ullanish, chet tillarini o'zlashtirishga qiziqishadi.

Kichik serjant Shohida Gopparova Vatan ishonchini oqlashdek sharafli va zahmatli yo'l boshida turibdi. Bu yo'l uni g'oliblik shohsupasiga olib chiqishga ishonamiz!

Zulfiya YUNUSOVA,
"Vatanparvar"

SHOHSUPA

(xabarlar)



Serbiyada dzyudo bo'yicha klublar o'rtasida Yevropa chempionlar ligasi musobaqasi, poytaxtimizdagi "Yunusobod" sport majmuasida esa O'zbekiston chempionati o'tkazildi. Musobaqalarda Mudofaa vazirligi Oliy sport natijalarini rivojlantirish markazi (MVSM) vakillari ham ishtirok etdi va sovrindor bo'ldi.



DIYORA YANA SOVRINDOR

Mudofaa vazirligi Oliy sport natijalarini rivojlantirish markazi vakili Diyora Keldiyorova (-52 kg) yil davomida bir qator nufuzli musobaqalarda muvaffaqiyatli qatnashdi va o'z vazn toifasi bo'yicha Xalqaro dzyudo federatsiyasi (IJF) reytingida uzoq muddat peshqadamlik qildi. U o'tgan hafta oxirida Serbiyaning Belgrad shahrida bo'lib o'tgan dzyudo bo'yicha klublar o'rtasidagi Yevropa chempionlar ligasi musobaqasida ham ishtirok etdi. Turkiyaning "Galatasaray" jamoasi safida tatamiga chiqqan dzyudochimiz yana sovrindorlar safidan joy oldi – bronza medalga sazovor bo'ldi.

Yevropa chempionlar ligasi musobaqasida mamlakatimizning nomdor sportchilari Sardor Nurillayev, Murodjon Yo'ldoshev, Alisher Yusupov, Shahram Ahadov ham qatnashdi va "Ko'hna qit'a"ning dzyudo jamoalari safida sovrinli o'rinlarni egallashdi. Jumladan, Sardor Nurillayev (-66 kg) va Murodjon Yo'ldoshev (-73 kg) Gretsiyaning "Aris" klubi safida

tatamiga chiqib, yakunda kumush medalga sazovor bo'ldi. Ispaniyaning "Stabiya" klubi tarkibida kurash olib borgan dzyudochilarimiz Shahram Ahadov (-73 kg) va Alisher Yusupov (+100 kg) esa chorak finalda bahslarni yakunlashiga to'g'ri keldi.

Poytaxtimizdagi "Yunusobod" sport majmuasida dzyudo bo'yicha O'zbekiston chempionati o'tkazildi. Keskin va murosasiz bahslarga boy o'tgan birinchi yoshlar orasidan yangi nomlarni kashf qilishi bilan mutaxassislarda iliq taassurot uyg'otdi. Qaysidir ma'noda boy tajribaga ega sportchilar ham bellashuvlar mobaynida yoshlarga o'rnak bo'lishdi. Xususan, MVSM a'zosi, "Tokio – 2020" yozgi Olimpiya o'yinlari ishtirokchisi Hikmatilloh To'rayev (-81 kg) yangi vazn toifasida tatamiga chiqdi va mamlakat chempionligiga erishdi. Eng og'ir vazn toifasida bahs olib borgan MVSMning yana bir vakili Bekmurod Oltiboyev (+100 kg) esa bronza medalni qo'lga kiritdi.

✓ QILICHBOZLIK

MAVSUM POYONIDAGI

MEDALLAR YOMG'IRI

2023-yilgi mavsum poyoniga yetgan sayin qilichbozlik bo'yicha xalqaro musobaqalar ham avj olmoqda. Yurtimiz yosh qilichbozlari dunyoning turli mamlakatlarida davom etayotgan qilichbozlikning barcha yo'nalishlari bo'yicha jahon kubogi bosqichidan o'rin olgan musobaqalarda ishtirok etayotgan bo'lsa, tarkibidan Mudofaa vazirligi Oliy sport natijalarini rivojlantirish markazi (MVSM) vakillari ham joy olgan kattalar "Parij – 2024" Olimpiadasi reytingi uchun qimmatli ochkolarni taqdim etadigan turnirlarda qatnashyapti.



O'tgan hafta oxirida Fransiyaning Orlean shahrida qilichbozlikning sablya yo'nalishi bo'yicha kattalar o'rtasida Gran-pri turniri o'tkazildi. Mazkur musobaqada O'zbekiston terma jamoasi a'zolari ham ishtirok etdi. Hamyurtimiz Sherzod Mamutov guruh bosqich bahslaridayoq imkoniyatni boy berib qo'ygan bo'lsa, Musa Aymuratov va MVSM a'zosi Zaynab Dayibekova saralash bosqichdan muvaffaqiyatli o'tib, "Parij – 2024" Olimpiadasi yo'lida qimmatli reyting ochkolari ishlashga muvaffaq bo'ldi.

Yosh qilichbozlarimiz esa deyarli barcha musobaqalarda medallar shodasiga egalik qilmoqda. Xususan, sablya bo'yicha Turkiyada yoshlar o'rtasida o'tkazilgan jahon kubogi jamoaviy dasturida qizlarimiz

ham, yigitlarimiz ham dunyoning kuchli jamoalarini mag'lub etib, oltin medallarni qo'lga kiritishdi. Poytaxtimiz mezbonlik qilgan qilichbozlikning rapira yo'nalishi bo'yicha jahon kubogi jamoaviy dasturida esa yigitlarimiz oltin, qizlarimiz bronza medal sohibiga aylanishdi.

O'tgan hafta oxirida Qozog'istonning Chimkent shahrida qilichbozlikning sablya yo'nalishi bo'yicha xalqaro turnir o'tkazildi. Mazkur musobaqada ham yosh qilichbozlarimiz muvaffaqiyatli ishtirok etdi. Turnirda Karina Qurbonova barcha raqiblarini mag'lub etib, oltin medalga sazovor bo'ldi. Oygul Shamuratova esa bronza medalni qo'lga kiritdi. O'g'il bolalar o'rtasidagi bahslarda hamyurtimiz Azizbek Karimboyev bronza medalga egalik qildi.

Darhaqiqat, bugungi kunda qilichbozlik sport turi yurtimizda tobora rivojlanmoqda. Yuqori saviyali sportchilarimiz jahon arenalarida mamlakatimiz sharafini munosib himoya qilib, yuqori natijalarni qayd etmoqda. O'zbekiston qilichbozlik federatsiyasi ma'lumotiga ko'ra, hali to'liq poyoniga yetmagan joriy mavsumda yoshlar va kattalar terma jamoamiz a'zolari rapira, shpaga va sablya yo'nalishlarining yakkalik bellashuvlarida 10 ta oltin, 5 ta kumush va 13 ta bronza, jamoaviy bahslarda 12 ta oltin, 3 ta kumush hamda 5 ta bronza, jami 48 ta medalni qo'lga kiritishdi. Ushbu muvaffaqiyatlarga Mudofaa vazirligi Oliy sport natijalarini rivojlantirish markazi qilichbozlari ham munosib hissa qo'shishdi.

TAEKVONDO



Ayni kunlarda Xitoyning Usi shahrida taekwondo WT bo'yicha yilning so'nggi "Katta Dubulg'a" turniri o'tkazilmoqda. "Parij – 2024" yo'llanmalarini qo'lga kiritgan Mudofaa vazirligi Oliy sport natijalarini rivojlantirish markazi (MVSM) vakillari Ulug'bek Rashitov hamda Svetlana Osipova kichik jarohat sabab ushbu turnirni o'tkazib yuborishadi. Pavel Xan boshchiligidagi O'zbekiston terma jamoasi tarkibidan 10 nafar yetakchi taekvondoimiz o'rin olgan. Musobaqa 17-dekabr qadar davom etadi.

BOKS



BAAning Dubay shahrida boks bo'yicha o'tkazilgan "IBA chempionlar oqshomi"da hamyurtimiz Saidjamshid Jafarov ham qatnashdi. Unga yaponiyalik Osiyo o'yinlari va jahon chempionati g'olibi Quinse Okazava raqiblik qildi. Murosasiz kechgan 6 raundlik jang yakunida hakamlarning yakdil qarori bilan hamyurtimizning g'alabasi e'tirof etildi.

BADIIY GIMNASTIKA



Poytaxtimizda Qirg'iziston, O'zbekiston va Belarus davlatlarining mahoratli sportchilari ishtirokida badiiy gimnastika bo'yicha "Grand-prix Uzbekistan" xalqaro musobaqasi o'tkazildi. Yurtimizning umidli gimnastikachisi Anastasiya Saranseva halqa bilan mashqlar yakunida g'oliblikka erishdi. Lenta va koptok bilan o'tkazilgan mashqlarda oltin medalni belaruslik Anastasiya Salots qo'lga kiritdi.

TENNIS



Turkiyaning Antalya shahrida Xalqaro tennis federatsiyasi tomonidan o'tkazilgan xalqaro turnirda g'olib va sovrindorlar nomi aniqlandi. Musobaqada mamlakatimiz sport sharafini ikkinchi raqamli tennisimiz Sergey Fomin himoya qildi. U finalga qadar Maks Xuks (Gollandiya), Lucho Carnevalle (Argentina), Denis Klok (Rossiya) va Yevgeniy Tyurnevni (Rossiya) mag'lubiyatga uchratdi. So'nggi hal qiluvchi final uchrashuvida esa qozog'istonlik Dmitriy Popkoga 4:6, 6:3, 2:6 hisobida imkoniyatni boy berib qo'ydi va musobaqa vitse-chempioniga aylandi.

SHAXMAT



Ispaniyaning Barselona shahrida mukofot jamg'armasi 57 ming 250 yevrodan iborat "IV El Ilobregat Open Chess" turniri bo'lib o'tdi. 9 turdan iborat xalqaro turnirda 200 nafardan ziyod yosh shaxmatchi "A" va "B" guruhida o'z omadlarini sinab ko'rdi. "B" guruhida dona surgan terma jamoamiz a'zolaridan Javohir Bozorov xalqaro turnirda 2-o'rinni, Islombek Sindarov 3-o'rinni egallagan bo'lsa, Marjona Malikova 77 nafar shaxmatchi orasida 5-o'rindan joy oldi.

PARA DZYUDO



Yaponiyaning Tokio shahrida dunyoning 40 ga yaqin davlati vakillari ishtirokida para dzyudo bo'yicha Gran-pri turniri o'tkazildi. Para dzyudochilarimiz mazkur musobaqada 3 ta oltin, bitta kumush, 4 ta bronza, jami 8 ta medalni qo'lga kiritdi va O'zbekiston terma jamoasi umumjamoa hisobida 1-o'rinni egalladi. Musobaqada 2 ta oltin medalga sazovor bo'lgan Moldova terma jamoasi ikkinchi, bitta oltin, 4 ta kumush va 5 ta bronza medal jamg'argan qozog'istonliklar uchinchi pog'onadan joy oldi.

Beg'ubor va sokin osmonni, samo uzra qanoʻt qoqib yurgan qushlarni, quyosh ko'tarilishi-yu, yangi kunning shiddatkor kechishini ko'rmoq katta baxt! Ona zamini gullab-yashnagan, tabiati betakror go'zallikka yo'g'rilgan tinch va farovon yurtda uning istiqomatchilari tunni xotirjam, kunni ezgu amallarni bajarish bilan o'tkazayotganliklari esa chinakam mo'jiza! Eng asosiysi, ozod va hur diyorning tarixiy va madaniy merosi, qadriyat, an'ana va urf-odatlar bilan Yangi O'zbekiston egalari qo'lga topshirishning o'zi bo'lmaydi.

Buning uchun kelajak vorislari ongiga Vatan, ona zamin tushunchalarini chuqur singdirmoq kerak. Demak, bu borada maktabgacha ta'lim tizimi xodimlari zimmlaridagi mas'uliyat yukini har qadamda his etib turishlari vaziyat taqozosi, davr talabidir.

Dang'ara tumani maktabgacha ta'lim tashkilotlari yelkalariga ortilgan bu yukni halol va vijdonan ado etib kelmoqdalar. Buni ishbilarmon rahbar Shahnnozaxon Uzaqova boshqarayotgan 13-MTT misolida ham ko'rishimiz mumkin. Biz bu dargohda tarbiyachi Nasibaxon Ahmadaliyeva timsolida aynan yuqoridagi maqsadning ro'yobini ko'ra oldik.

Tarbiyachi guruh bolajonlari bilan "Nima berdim Vatan uchun?" mavzusida mashg'ulot o'tayotgan ekan. Sekingina ular davrasiga qo'shildik.

– Oq shohi bulutlarga to'la osmon, mevalari g'arq pishgan bog'lar, tekis va ravon yo'llar, chiroyli va zamonaviy binolari bor, odamlari shirinso'z va mehribon, bolajonlari quvnoq va baxtli yurti bilasizlarmi, bolajonlar? – deya tarbiyachi guruhga yuzlandi. Ustozning bu savoli tugar-tugamas butun guruh bir ovozdan "Ha, bu bizning O'zbekiston" deya hayqirdilar.

Darhaqiqat, tinchlik – eng buyuk ne'mat. Uning qadri, qimmatini shunchalar ulug'vorki, uni hech qanday qiymat, miqdor bilan o'lchab bo'lmaydi.

– Nasibaxon izlanuvchan, yangilikka o'ch, o'qib-o'rganishdan tolmaydi sira, – deydi Shahnnozaxon Uzaqova. – U bor bilim va mahoratini bolajonlarga baxshida etib kelayotganidan quvonadi. Ularni baxtli kelajakning egalari deb biladi. Har bir mashg'ulotni o'zaro muloqot asosida olib boradi.

– Bilasizlarmi bolajonlar, bizning yurtimiz shunday bir go'shaki, unda ko'zyosh emas, kulgi mujassam. Bozorlarimiz to'kin, ko'chalar obod va gullarga to'la. Uylarimizda xotirjamlik hukm suradi. Qalblarimizda esa shukronalik hissi limmo-lim. Qani, erkatoylar, Vatanni kim qanday tasavvur etadi?

– Vatan – mening jonajon bog'cham!
– Men yashayotgan uy – mening Vatanim!

– Vatan – onam!
– Vatan – bu oilam... Bolajonlar chug'urlashib, o'z fikrlarini bayon qila boshladilar.

Men mashg'ulot jarayonini bir chetda jimgina kuzataman. Tarbiyalanuvchi qiz Vatanni tarannum etuvchi she'rni aytar ekan, bexos to'xtab, bolajonlarga yuzlandi. Kichkintoylar esa she'rni qolgan joyidan yod ayta boshladilar. Ular xato qilmay, tutilmay she'rni

davom ettirish bilan birga ustozning xatti-harakatiga taqlid qiladilar. Ko'zlari kulib, erka tildagi bayoni bilan sizning qalbingizni quvonchga to'ldiradilar, qo'shiqlar kuylab, raqsga tushadilar.

Mashg'ulot tugagach, tarbiyachi ustoz bilan biroz suhbatlashdim.

– Bugungi mashg'ulotingiz Vatan haqida ekanda, – dedim.

– Ha, shunday. Lekin men har kungi mashg'ulotlarni Vatanga oid so'zlar bilan boshlayman. Negaki hozir bu bolajonlar olti yoshda. O'rganganlari bir umr yodida muhrlanib qoladi. Vatan yagona, Vatan muqaddas ekanligini hozirdan anglab borsalar, ertaga ular "Nima berdim Vatan uchun?" degan aqida asosida yashaydilar. Vatanni sevish va asrash kerakligini yurakdan his etib boradilar.

O'ktamxon AKBAROVA,
"Dang'ara" gazetasi bosh muharriri

NIMA BERDIM VATAN UCHUN?

SPORT

MAYDON MARKAZIDA –

FAXRIYLAR

Aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini keng targ'ib qilish, ommaviy sportni rivojlantirish, faxriylarimizni doimiy sportga jalb qilish maqsadida tashkil etilgan futbol bo'yicha Faxriylar oliy ligasida yana bir qiziqarli musobaqa o'z nihoyasiga yetdi.



Vatanimiz tinchligi yo'lida halok bo'lgan Mudofaa vazirligi Maxsus operatsiyalar kuchlari o'g'lonlarining yorqin xotirasiga bag'ishlab o'tkazilgan "Special Operations Forces Veterans Cup – 2023" futbol musobaqasi shu yilning 12-noyabr kuni start olgan edi. Faxriylar oliy ligasi futbol jamoalari o'rtasida ilk bor tashkil etilgan mazkur musobaqaning final bosqichi poytaxtimizdagi Mirobod tumani

bolalar va o'smirlar sport maktabida bo'lib o'tdi.

Unda Mudofaa vaziri maslahatchisi – Mudofaa vazirligi Faxriylar ishlari bo'yicha markaziy kengash raisi, iste'fodagi polkovnik Abubakir Navro'zov, Yoshlar siyosati va sport vazirligi vakillari, iste'fodagi harbiy xizmatchilar va yoshlar ishtirok etdi.

Chempionat "Oltin pley-off" va "Kumush pley-off" kabi ikki

yo'nalishda o'tkazildi. "Kumush pley-off"da Toshkent viloyatining "Aviator" jamoasi zafar quchgan bo'lsa, "Oltin pley-off" yo'nalishida "Intersport" jamoasi musobaqa kubogini boshlari uzra baland ko'tarishdi.

Musobaqa g'oliblari, turli nominatsiya ilg'orlari kubok, medal va esdalik sovg'alar bilan taqdirlandi.

Ma'lumot uchun, futbol bo'yicha faxriy professional va havaskorlar

ishtirokida o'tkaziladigan O'zbekiston Respublikasi Faxriylar oliy ligasi 2022-yil 15-may kuni Mudofaa vazirligi Faxriylar ishlari bo'yicha markaziy kengashi, O'zbekiston "Veteran" jangchi-faxriylari birlashmasi va O'zbekiston Futbol federatsiyasi faxriylari kengashi tomonidan tashkil etilgan.

I. QO'CHQOROV

OMONAT DUNYODAGI G'ANIMATLARIMIZ

Tahririyatga yoshi ulug' onaxon kirib keldi. Salom-alikdan keyin mehmonimiz istihola bilan gap boshladi:
– Yoshim oltmishlarga borib qoldi, qizim. Shu yoshgacha ko'p narsalarni ko'rdim. Anchadan beri bir narsa yuragimga xanjarday botadi. Shuni sizlarga aytib bersam, yozib chiqarsangiz, zora odamlar o'qib, yon-veriga qarasa, o'zi bilan yuz berayotgan voqealardan xulosa chiqarsa degandim. Avval katta opam uzatilib, oradan 10 yil o'tgach, singillari, kichik opamni o'zlariga ovsin qilgandi. Kichik opamning hamma bolalariga katta opam onasi bilan birga onalik qildi, o'zi bosh-qosh bo'ldi. Katta opamning yettita farzandi, kichik opamda beshta – to'rt o'g'il, bir qizi bor. Kichik opam ancha yil oldin rahmatli bo'lib ketdi. To'rt farzandini uyli-joyli qilishga ulgurdi-yu, kenjasi – Qodirjonning to'yini ko'rish unga nasib qilmadi.



Yaqinda opalarim bilan katta opamning uyida ko'rishdik. O'tib ketgan opamning yolg'izgina qizi ham "onam o'rmidasizlar", deb xolalarini ko'rgani kelgan ekan. Bir payt qaydandir Qodirjon ham paydo bo'ldi. Shunchalik bag'ritosh ekan, uni ko'tarib katta qilgan opasini ko'rib, qovog'i solindi.

Taqdirida bor ekan, bir qaltislik bilan kichik opamning uchinchi o'g'li Botirjon qamalib qoldi. O'sha kezlarda Qodirjon durustgina joyda ishlar, topish-tutishi ham yaxshi edi. Opam sho'rlik "o'g'limning topgani" deb kichik o'g'lining puliga uzoq viloyatdagi qamoqxonada yotgan o'g'lini ko'rib qaytar ekan. Bu noqobil bola deng, akasi qamoqdan chiqqach, "Onam mening pulimga seni ko'rgani borardi, oxiri sening dardingda o'lib ketdi", deb akasiga minnat qilgan ekan. Botirjon ham oriyatli yigit emasmi, "Onam vafot etgan bo'lsalar, men seni hech kimdan kam qilmay, uylantirib qo'yaman", debdi. Aytganidan a'lo qilib, to'y qilib berdi. Botirjon jiyanim ukasini uylantiraman, deb ikki xonali uyini sotib yubordi. Hozir bo'yiga yetgan qizlari bilan ijarama-ijara sarson yuribdi. Qodirjon esa uylanganidan keyin negadir bosar-tusarini bilmay qoldi. Hali xolasi – opam bilan, hali amakisi – pochcham bilan xezlanib, janjal qiladimi-yey, hali otasiga gap qaytaradimi-yey. Bittagina opasi bor, opa ona o'rni deyidilar. Shu mushtipargina opasini qizlik uyiga kelolmaydigan qilib qo'ydi. Pochcham boyaqish bir o'zi kichkina xonada yashaydi. Yetmishdan oshgan odam ovqatini o'zi qiladi, choyini o'zi damlaydi, uyini o'zi supuradi. Xotini o'tgandan keyin erkak haqiqatan ham yetim bo'lib qolarkan. Pochchamga rahmim keladi. Qodirjonning ketma-ket ikkita bolasi tug'ildi, Xudoning ishini qarang, ikkovi ham nogiron. Ikki go'dak ham yoshiga yetmay, nobud bo'ldi. Ta'na qilmoqchi emasman-u, lekin boshiga shuncha tashvish tushib ham bundoq o'zini taftish qilmaydi, bu bola. Biz-ku, mayli, uzoqroqmiz, opasi ham o'ziga tinch, shu ukasiga qarab qolgan joyi yo'q. Lekin otasi bechoraga qarab, ezilib ketadi odam. Shu umidda farzand o'stirganmide, shu niyatda to'y-tomoshalar bilan kelin tushirganmide? Kelin bo'lib, issiq-sovug'idan xabar olmasa, bir piyola choy tutmasa, qaynotam ekan, erimning otasi, shu uying kattasi ekan, deb biror ishini maslahat qilmasa, boradigan joyini aytib, ruxsat so'ramasa, shumi kelin qilishning zavqi, qaynotalik qadri?!



Biz bilan ham naridan beri so'rashib, bo'ynini tarang qilib ketaverdi. Uyga borib, pochchamga "dada, sizga qarindoshlaringiz salom aytvordi", debdi. Pochchamning qattiq jahli chiqibdi. "Biri opang, boshqasi xolalaring-ku! Hammasi ona o'rnida, senga begona emas ular. Ko'zimga ko'rinmagin, senday o'g'ilning boridan yo'g'i yaxshi" deb Qodirjon jiyanimizni koyibdi. Pochcham bu haqda katta opamga yig'lab aytib beribdi. "Singlingiz borida bolalarimiz ahil-inoq, bir-biriga mehribon edi. Qarindosh-urug'ga oqibatli edi, onasining qazosidan keyin hammasi o'z o'rnida-yu, Qodirjon butkul aynidi. Birgina opasini shu uyga qadam bosmaydigan qildi. Qizim meni ko'rgisi kelsa, kuyovni yuboradi, bir-ikki kun ulamkida turib kelaman. Shu kelin bilan Qodirjonning dastidan hech bir qarindosh-urug' uyimizga kelmaydigan bo'ldi. Bu bolaning ko'ngliga buncha kibr-u havo qaydan o'rnamashibdi, bilmayman. Axir hammasiga birdek tarbiya berganmiz-ku", deb o'ksinibdilar.

Xullas, gapiraman desam, gap ko'p. Aytmoqchi bo'lganim, odamlar

boshiga biror mushkulot tushsa, uning yechimini o'zidan izlasa, qilmishlarini tahlil qilsa bo'ladi-ku. Malomat qilish, yuziga solish niyatim yo'q, lekin jiyanim hech o'ylab ko'rmikan, "Qaysi ishim Xudoga xush kelmay, ikki go'dagim ham nogiron, kasalmand tug'ildi? Nega ikki marta farzand dog'ini ko'rdim?" degan savol bilan qilmishlarini aql tarozisida tortib ko'rmikan...

Onaxon bilan ancha suhbatlashdik. Yaqin qarindosh-urug', ota-o'g'il, ona-qiz o'rtasidagi uzilayotgan rishtalar, ayrim hollarda zaiflashib, ohori to'kilayotgan oqibat, andisha, mehr-muruvvat tuyg'ularining zavoli haqida kuyinchaklik bilan munosabat bildirgan keksa mushtariyimizning mulohazalaridan mutaassir bo'ldik. Ayni holatga o'xshagan voqealar ko'pdan beri ko'ngilimizga og'riq soladi. Chindan ham oramizda oqibatsiz o'g'illar, qarindoshlik rishtalarining uzilishidan xavotirga tushmaydigan bag'ritoshlar ko'plab uchrayapti. Gapirish, munosabat bildirish o'z yo'lga. Bu illatlarning asl ildizi qayerda? Nega buncha berahm bo'lib ketyapti odamzod? Bir urug' nari amma-xola, tog'a-amakilarni qo'ya turaylik, o'z jigarlarimiz, tug'ishganlarimiz, hatto ota-onamizga ham ko'ngildagidek munosabatda bo'lmaymiz. Nima uchun?

NONKO'RLIKNING O'ZGINASI!

Nonko'rga jazo muqarrar! Nafaqat, el-yurtning nafrati, yaqinlarining ta'nali nigohi, balki Xudoning qahri va vijdon azobiga giriftorlik ularni umr bo'yi ta'qib etadi. Ayni shu mazmunda tahririyatga maktub kelgan edi:

"...Bolaligimdan otam ukamga boshqacha mehr bilan qaraydi, degan fikr menga tinchlik bermasdi. Ulg'ayib, uylanib, bola-chaqali bo'lganimdan keyin bu fikrimga batarroq ishonдим. Ukam bilan uyimiz yonma-yon. To'g'irog'i, otam menga hovlimizning yon tomoniga uy qurib, chiqarib yuborganlar. Ukam tug'ilib-o'sgan hovlimizda, ota-onam bilan birga turadi. Otam bilan ukamning bahonasida bir necha bor janjallashganmiz. Bir janjalimizdan keyin otam bilan gaplashmay qo'ydim. Har kuni ishga chiqib ketayotganimda, ishdan qaytayotganimda otamning menga mung'ayib, qarab turganini sezib turardim.

Shu bo'yi ikki yil o'tib ketdi. Men nodon otam keksayib qolyapti-ku, to'rt-besh kunlik g'animat-ku, deb o'ylamabman. Onam "Otangga salom ber, o'g'lim! Sen farzandsan, farzand ota-onasidan domangir bo'lib yurishi ma'qul emas", deb bir necha marta gina qildilar. Qaysarligim tutib, hech parvo qilmadim. Bu orada tuppa-tuzuk, biyron gapirib, chopqillab yurgan kichik o'g'lim birdaniga xastalanib, tildan qoldi.

Otam ham qazo qildi. So'nggi kunlarida onamning iltijolari bilan biroz yonlarida turdim. Mening o'rnimga otam uzr so'radilar. Bu voqeaga besh yil bo'libdi. Ko'r ko'zim ochilib, xato qilganimni, nafaqat xato, balki adashganim, gunohi kabiraga qo'l urganimni qilmishlarim jazosi murg'ak o'g'limga urganini tushunyapman. Ammo afsuslar bo'lsinki, kech bo'ldi. Otamning ko'nglini og'ritdim. Hayotligida oyoqlariga bosh urib, uzr so'ramadim. Endi pushaymonlik o'rtyapti. Bir tomonda o'g'limning raftori..."

Insoniy rishtalar ichida eng kuchlisi qon va nasab qarindoshligidir. Odam bu rishtaga suyanadi, undan kuch va quvvat oladi. Hayot muammolarini yechishda unga tayanadi. Qarindoshchilik rishtalarini turli yo'l va usullar bilan mustahkamlashga harakat qilish inson rizqi va umriga ta'sir etishi mumkinligi haqida ham Payg'ambarimiz (s.a.v.) bunday deganlar:

"Kimni rizq-ro'zi keng bo'lishi va umri uzoq bo'lishi xursand etsa, bas u silayi rahm qilsin, ya'ni qarindoshlik rishtalarini mustahkamlasin". Qarindoshlik rishtalarini uzish eng katta gunohlardan biridir. Undaylardan yaxshilik kutilmaydi. Rahm-shafqat umid qilinmaydi. Zero o'z yaqinlariga yaxshilik qilmaydigan kimsadan begonalar qanday naf ko'rsin?

Qarindoshlarimizga mehr-muruvvat ko'rsatib, o'zaro qavm-qarindoshlik rishtalarini mustahkamlash orqali bir-birimizga qanchalik yaxshilik va rahm-shafqat qilsak, ota-ona, og'a-ina, opa-singillarimizning holidan xabar olib, ularning ko'ngillarini shod qilish bilan Yaratganning marhamatiga erishamiz. Ota-ona, aka-uka, opa-singil kabi qon-qarindoshlarga yaxshilik qilish silayi rahmning eng avvalgi pog'onasida turadi. Ular kishi uchun eng yaqin insonlar hisoblanadi.

Rivoyatlarda keltirilganiday, aka singlisi holidan xabar olish uchun ketayotganida qarshisidan bug'doyzor dala chiqib qolsa, yo'lni qisqartirish uchun uni payhonlab o'tishiga ijozat berilganining o'zi ham akalarning o'z singillariga qanday munosabatda bo'lishlari kerakligini ko'rsatib turibdi. Zamonamiz og'alari esa ko'pincha vaqti yetishmasligi, qo'li qisqaligi, singlisi unga yaxshi muomalada bo'lmagani, u xotiniga yoqmasligi va boshqa sabablarni bahona qilib, qiz jigarlari holidan xabar olish, mushkulotida yordam berish, ko'nglini ko'tarishdan o'zlarini olib qochadilar. Bu ishlar bilan bug'doyzor dala qolib, ko'ngil dalalarini payhon qilib yurganlarini o'ylab, o'zlarini taftish qiladigan akalar ko'payishidan umidvormiz.

Ba'zan jigarchilik o'lchovlarining buzilishi ham oilalarni parokanda, qancha yaxshilarni ahillikka orzemand qilib qo'yadi. Munosabatlarda adolat buzilsa, haqlar poymol qilinsa, axloq chegaralaridan chetga chiqilsa, oilalardagi osoyishtalik barham topadi, ahillikka raxna yetadi, insoniy munosabatlar izdan chiqadi. Bu kabi illatlar jamiyat rivojiga ham salbiy ta'sirini yetkazmay qo'ymaydi. Yaxshiyomon kunimizga, og'ir-yengilimizga avvalo, mana shu qarindoshlarimiz, yaqinlarimiz, jon-u jigarlarimiz yaraydi. Ular esa omonat dunyodagi g'animatlarimiz. Vaqtda qadrlaylik, toki so'nggi pushaymonlik xanjari bag'rimizni tig'lamasin...

Umida ADIZOVA,
jurnalist

O'tgan yili Qurolli Kuchlarimiz tashkil etilganining 30 yilligi va Vatan himoyachilari kuni bayrami arafasida Nukus garnizonidagi harbiy qismlarning birida yangidan qurilgan Ma'naviyat va ma'rifat markazi hamda sport majmuasi foydalanishga topshirilgan edi.

“JONLI KITOB” LOYIHASI

Eng olis hududda harbiy xizmatchilar va ular oila a'zolarining ijtimoiy himoyasini ta'minlash, qo'shinlarning jangovar shayligini yuksaltirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar doirasida bunyod etilgan mazkur markazda bugun harbiy shaharchada istiqomat qilayotgan harbiy xizmatchilarning farzandlari uchun turli fan va sport to'garaklari faoliyat olib bormoqda. Shu o'rinda ziyo maskanida joylashgan badiiy kutubxona faoliyati xususida ham alohida to'xtalib o'tish joiz.

Mo'jaz kutubxonada 6 000 dan ziyod tarixiy, ilmiy, iqtisodiy, huquqiy, o'zbek, jahon va qoraqalpoq adabiyoti hamda turli o'quv qo'llanmalar jamlangan. Kunda-kunora kutubxonada yoshlar

orasida kitob mutolaasini targ'ib qiluvchi turli ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, adabiy-badiiy kechalar tashkil etib turiladi. Kutubxonachi Nodira Madrimova tashabbusi bilan tashkil etilgan “Jonli kitob” loyihasi ham kitobxonlar safini kengaytirishga qaratilgan shunday ahamiyatli tadbirlardan biridir.

– “Jonli kitob” loyihasida noana'naviy usuldan foydalandik, – deydi loyiha haqida Nodira Madrimova. – Bu usulning o'ziga xosligi unda kitobning o'rniga bir qahramon tanlab olamiz. U qahramon bolalik yillaridan to hozirgi kungacha bosib o'tgan hayot yo'li haqida so'zlab beradi va albatta, shu kungacha o'qigan kitoblari bilan o'rtoqlashadi. Harbiy

qismimizda serjant Ixtiyor Shodiyevning xizmatiga, oilasiga havas qilmagan inson bo'lmasa kerak. Ilk qahramon sifatida shu insonni tanlab oldik.

Loyiha hammaga birdek manzur bo'ldi. Shu kuni markazning katta zalida “Kitobsevarlar klubi” a'zolari tomonidan Ahmad Lutfiy Qozonchining “O'gay ona” nomli asari asosida sahnalashtirilgan spektakl yig'ilganlar e'tiboriga havola etildi. Sahna ko'rinishini tomosha qilar ekanmiz, Nodira opaning biz bilan suhbatlasha turib aytgan “Bu loyiha bolajonlarimiz orasidagi hali qanchadan-qancha iqtidor egalarini kashf etadi”, degan so'zlarining ma'nosini anglagandek bo'ldik va bundan cheksiz quvondik...

“Kitobsevarlar klubi”da har bir kitob mutolaasidan keyin viktorina va savol-javob kechalarini o'tkazish esa xayrli an'analar qatoridan o'rin olgan.

Harbiy qism shahardan ancha olisda bo'lishiga qaramay, hayot jo'shqin davom etayotganining guvohi bo'lasiz. Asosiysi, yosh avlodning bo'sh vaqti mazmunli tashkil etilmoqda. Harbiy qismdagi askarlar orasida ham sog'lom muhit shakllangan. Bu esa kitob va mutolaaning qanchalik qudratli kuchga ega ekanligini anglatadi.

Shimoli-g'arbiy harbiy okrug matbuot xizmati



TARBIYA

JAZONI URO ETISH MUASSASASIDA BIR KUN

Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ertangi kunimizni, istiqbolimizni belgilovchi asosiy omil hisoblanadi. Chunki yoshlar – kelajakni quruvchilar va boshqaruvchilaridir. Demakki, ularning ta'limi-yu tarbiyasiga shu yurtda istiqomat qilayotgan barcha birdek mas'ul sanaladi.



Qurolli Kuchlar akademiyasi Ichki ishlar vazirligi qo'shinlarini tayyorlash kafedrasiga birlashtirilgan Toshkent shahrida joylashgan 198-maktabda tahsil olayotgan, IIBning voyaga yetmaganlar bilan ishlash bo'yicha inspektorlari ro'yxatida turuvchi, tartib-intizomni buzishga moyil bo'lgan, maktabning o'quvchilari bilan o'tkazilgan profilaktik tadbir ham ana shunday ezigulik yo'lida tashkil qilindi.

Tadbir IIV Jazoni ijro etish departamentiga qarashli 24-sonli tarbiya koloniyasi (voyaga yetmaganlarni

saqlash uchun mo'ljallangan) hududida maktab ma'muriyati hamda hududiy IIB xodimlari bilan hamkorlikda o'tkazildi. Davra suhbatiga koloniya ma'muriyati hamda jazo muddatini o'tayotgan tarbiyalanuvchilar jalb qilindi. Tarbiya koloniyasida jazo muddatini o'tayotgan tarbiyalanuvchilar o'zlarini hayotiy kechinmalarini ko'zyoshlari bilan ifodalashdi.

So'zga chiqqan tarbiyalanuvchilardan biri, ne'matlarning eng ulug'i erkinlik va ozodlik ekanligini hayajon bilan ta'kidlar ekan, har kuni

ota-onasini va aka-singillarini juda sog'inishini, oilasi davrasida o'tgan kunlarni hech narsaga almashmasligini aytdi. Tarbiyalanuvchilarning ko'pchiligi maktab o'quvchilariga qarata har doim ota-onalari va ustozlarini qadrlashi kerakligini, ularning pand-nasihatlaridan to'g'ri xulosa chiqarishlarini, kelajakda nufuzli oliygohlarda o'qishlarini, hech qachon yomon yo'lga kirmaslikni, jinoyat uchun jazo muqarrar ekanligini aytishdi.

Tadbir so'ngida maktab o'quvchilaridan ushbu tadbirdan qanday

taassurot olganliklari so'ralganda, ularning aksariyati jazo muddatini o'tayotgan tarbiyalanuvchilarning aytgan so'zlaridan o'zlariga to'g'ri xulosa chiqarganliklari, bolalar ham jazo muddatini o'tashi mumkinligini o'z ko'zlarini bilan ko'rganliklari katta saboq bo'lganligini hayajon bilan ta'kidlashdi.

**Podpolkovnik
Ulug'bek SAYDULLAYEV,
Qurolli Kuchlar akademiyasi
kafedra boshlig'ining o'rinbosari**

MOHIR

SPORTCHILAR

G'ALABASI

Keyingi yillarda O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotining Xorazm viloyati kengashi hamda viloyat texnik va amaliy sport turlari markazi tomonidan vohada sportni yanada rivojlantirish, uning ommaviyligini oshirish yo'lida izchil sa'y-harakatlar olib borilmoqda. Chunonchi, sport seksiyalari faoliyatini, ularning moddiy-texnik bazasini yanada yaxshilash, zamonaviy anjom va jihozlar bilan ta'minlash hamda yoshlarni seksiyalarga kengroq jalb qilish kabi vazifalar shular jumlasidandir.



Fursatdan foydalanib, "Vatanparvar" tashkiloti Xorazm viloyati kengashi tasarrufidagi texnik va amaliy sport turlari markazi jamoasi barcha yurtdoshlarimizni yaqinlashib kelayotgan Yangi – 2024-yil bilan chin dildan muborakbod etadi.
Kirib kelayotgan yilda omad, baxt-saodat doimo hamrohingiz bo'lsin!

Bugungi kunga kelib yoshlar "Vatanparvar" tashkilotining viloyat kengashi tizimidagi barcha tashkilotlarda faoliyat yuritayotgan "Yozgi biatlon", "Duatlon", "Triatlon", "Havo miltig'idan o'q otish", "Motokross", "Karting", "Parashyut", "Aviamodel", "Raketamodel" kabi sport seksiya va to'garaklarida katta qiziqish va ishtiyoq bilan muntazam shug'ullanib kelmoqda. O'z navbatida, mashg'ulotlardan tashqari, belgilangan reja asosida uyushtirilayotgan musobaqalar sportchi yoshlarning tajriba va mahoratlarini maromiga yetkazishga xizmat qilmoqda.

– O'z poyoniga yetayotgan yil mobaynida Xorazm viloyati terma jamoalarining tizim tashkilotlari bo'yicha o'tkazilgan respublika miqyosidagi 34 ta musobaqada muvaffaqiyatli ishtiroki ta'minlandi, – deydi markaz direktori Adilbek Ibragimov.

– Bu musobaqalarda 150 nafardan ziyod iqtidorli sportchimiz o'z mahoratlarini namoyish etdi. Shuningdek, viloyat kubogi, chempionat va birinchiliklarda 700 nafardan ziyod o'g'il-qizimiz qatnashib, tegishli me'yor talablarini bajardi.

Natijada ko'plab iqtidorli sportchilar yetishib chiqdi. Masalan, makazimizning yozgi biatlon ustalari Darmonjon Ro'zmetova hamda Kumushoy Matyoqubova O'zbekiston Respublikasi terma

jamoasi safida bir necha bor Osiyo chempionati hamda nufuzli xalqaro musobaqalarda g'olib va sovrindorlar qatoridan joy oldi. Shuningdek, yana bir sportchimiz Yoqutoy Jumaboyeva triatlon bo'yicha O'zbekiston chempioni bo'ldi. Pnevmatik miltiqdan o'q otish sporti bo'yicha Olima Komilova qo'lga kiritgan natijalar salmoqliligi bilan ajralib turadi. Binobarin, u O'zbekiston terma jamoasi tarkibida xalqaro miqyosdagi musobaqa va turnirlarda Vatanimiz sharafini munosib himoya qilgan. Yozgi Olimpiya o'yinlari yo'llanmasi uchun bahs yuritgan.

Ayni kunlarda ham viloyatimiz sportchilari orasida respublika musobaqalarining ko'plab g'olib va sovrindorlari yetishib chiqmoqda. Jumladan, yakunlanayotgan 2023-yil mobaynida havo miltig'idan o'q otish ustalari Elbek G'anibekov, Temurbek Abdullayev, Dilnavoz Masharipova, Laylo Haydarova, motopoygachilardan Maksim Aripov, Nikolay Sharabayev, Baxtiyor Xudoyberganov, qisqa to'liqinli telegraf orqali radio aloqa o'rnatish bo'yicha Radik Gabdraupov, Olim Qodirov, Rustam Qodirov, kartingchi Tamara Bobojonova singari ko'plab vakillarimiz respublika chempionati birinchiligi hamda kubogi musobaqalarida vohamiz sharafini munosib himoya qilib, g'olib va sovrindor bo'ldilar.

Mana, ikki yildirki, viloyat terma jamoasi O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti Markaziy kengashi raisining kubogi uchun tashkil etilayotgan "Shunqorlar" harbiy-sport o'yinlari g'olibligini ham qo'ldan bermay kelmoqda. O'z navbatida, yuqori ko'rsatkichlarga erishayotgan g'olib sportchilar munosib ravishda rag'batlantirib borilmoqda. Tabiiyki, sportchilarga qaratilayotgan e'tibor besamar ketmayapti. Ularni yangi-yangi marralar sari yetaklamoqda.

O'zbekiston chempionatlarining g'olib va sovrindorlari safidan joy olayotgan xorazmlik sportchilar imtiyozli ravishda oliy ta'lim muassasalariga kirish imkoniyatlariga ega bo'lmoqda. Keyingi yillarda 6 nafar g'olib sportchi Toshkent davlat jismoniy tarbiya va sport universitetiga, Urganch davlat universiteti va Urganch davlat pedagogika institutlariga grand asosida o'qishga kirishga muvaffaq bo'ldi.

Ayni paytda markazda nafaqat sport turlarini rivojlantirish, balki yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda ommaviy kasb xodimlarini tayyorlash ishlari ham yaxshi yo'lga qo'yilgan. Shu kunlarda bu yerda "A", "B", "BC", "BE", "CE" hamda "D" toifali haydovchilar ham tayyorlanmoqda.



To'planib olib, nimalarnidir qiziqib tomosha qilayotgan bir guruh maktab o'quvchilarining oldidan befarq o'tib keta olmadim. Razm solib qarasham, u na bir kitob, na bir qiziqarli rasm, balki qimmatbaho qo'l telefoni. O'rtoqlari telefoniga havas bilan qarashayotganini ko'rgan bolakay esa go'yo matematikadan "besh" baho olgandek xursand edi.

QO'L TELEFONISIZ BIR KUN



Bunday hodisalar vaqt o'tgan sayin odatiy manzaraga aylanayotganligi bugun sir emas. Dastlab so'zlashuv vositasi sifatida yuzaga kelgan telefonlar ayni damda qulayligi va imkoniyatlarining kengligi bilan aloqa vositalari orasida birinchilikni egallaganligi ham shundan. Albatta, turmushimizda mobil telefonlarining o'rnini inkor etib bo'lmaydi. Ammo biz bugun e'tiboringizni o'quvchi-yoshlar hayotida qo'l telefonlarining o'rnini va ahamiyati haqidagi mulohazalarimizga qaratmoqchimiz.

Hozir maktab o'quvchilarining ko'pchilik qismi o'quv qurollariga bo'lgan ehtiyojdek o'z telefonlariga ega. Bu ota-onalarning ulardan xavotir olmasliklari-yu, tergap, surishtirib turishlari uchun yaxshi imkoniyat aslida. Lekin ko'pincha bola bolaligiga borib, telefonni dars vaqti o'chirib qo'yish va zarur bo'lgandagina tanaffus payti so'zlashish kerakligini unutib qo'yadi.

– Shu masalada hozir maktab tizimida o'quvchilarning qo'l telefonlariga oid ma'lum ichki qoidalar joriy qilinganmi?

– Umuman, maktabda o'quvchilarga telefonidan foydalanish qat'iy an qilinmagan. Ammo bu ular xohlaganda telefonidan foydalanadi, degani emas, – deydi o'qituvchi bo'lgan suhbatdoshimiz Munavvara Ibodova. – O'quvchilar darsga kirdimi, bo'ldi, ular telefonlarini o'chirib qo'yishlari shart. Chunki bu nafaqat ularning, balki biz, o'qituvchilarning ham fikrimizni chalg'itadi. Dars jarayonidagi bunday to'xtalishdan so'ng o'qituvchi o'z fikrini yana jamlab olguncha bir muncha vaqt o'tadi. Shuning uchun ham biz bu holatlarni nazorat qilib boramiz va majlislarda ota-onalardan ham dars vaqtida qo'ng'iroq qilmasliklarini so'raymiz. Bevaqt qilingan qo'ng'iroqlar bolada diqqatni jamlay olmaslik, xotira tizimining beqarorlashishi

hamda dars vaqtida o'quvchining xotirjamligi yo'qolishiga olib keladi.

Xo'sh, bu borada ota-onalarning fikri qanday, ular farzandlariga telefon xarid qilishayotganda uning qaysi jihatlarga e'tibor berishyapti? O'quvchilar telefon orqali oila a'zolari bilan bog'lanishdan tashqari, telefonning boshqa imkoniyatlaridan ham foydalanayotganliklaridan ota-ona boxabarmi?

Umuman, bolalarga qanday telefonlar olib bergan ma'qul, shu haqda onalarga yuzlanamiz.

Ra'no IVATOVA:
– Uch farzandim maktabga qatnaydi. Lekin ularga telefon olib bermaganmiz. Chunki boshidanoq shunga oilaviy kelishib olganmiz. Nazarimda, o'quvchilarga telefonning keragi yo'q. Sababi telefon bolalarni darsdan chalg'itadi, oqibatda ularning bilimi pasayadi. Bolalarimning o'qishi va intizomini o'qituvchilarining o'zlari bilan yuzma-yuz yoki telefon orqali bog'lanib bilib turaman.

Dilfuza AKOBIROVA:

– O'g'lim yuqori sinf o'quvchisi, shuning uchun unga telefon olib berganmiz. Oddiy, qulay telefon, u faqat so'zlashuv uchungina foydalanadi. Menimcha, o'quvchilarga suratga oladigan, radiopleyerli, videotasmali turlari kerak emas. Shuningdek, bolalarni kundaligini ko'rib borgandek, telefonlarini ham kuzatib borish kerak. Shunda oilada bolalar bilan bo'ladigan munozaralarning oldini olgan bo'lamiz.

Bunda har kim o'z fikrini asosli deb biladi. Biz ham ularning ayrimlariga qo'shilamiz. Ayniqsa, millatimiz mentalitetiga yot bo'lgan turli hayosiz chet el kliplari yoki urush-janjalli, shov-shuvga sabab bo'ladigan manzaralar-u,

kishilar hayotining eng og'ir damlari bo'lmish motam marosimlarini tasvirga olishni uddalab, sotuvga chiqarib yuborayotgan yangi turdagi "olib-sotarlar" ko'paygan hozirgi vaqtda o'sib kelayotgan yosh avlod ruhiyatini shunday yomon ta'sirlardan asrashda ota-onalarimiz har jihatdan oddiy, imkoniyat doirasi kichik bo'lgan mobil telefonlarini olib berganliklari ma'qul, bizningcha.

Bu fikrimizga olim, sotsiologiya fanlari nomzodi Komil KALONOV ham qo'shilib, jumladan shunday deydi:

– Bugun dunyoning ayrim mamlakatlarida, xususan Yaponiya ta'lim tizimida qo'l telefonlaridan maktab hududida umuman foydalanmaslikka erishildi. Biz o'quvchilarga qo'l telefonlarini taqiblab qo'yolmaymiz. Chunki taqiblangan narsaga qiziqish yanada ortadi. Shuning uchun maktablarda bugun chet ellarda o'quvchilar telefonidan qay tarzda, qay vaqtda foydalanayotganliklari to'g'risida videoroliklar ko'rsatilsa, ma'ruzalar, tushuntirishlar olib borilsa, bola ruhiyatida taqqoslash funksiyasi yaxshi samara beradi. Bundan tashqari, hozir aynan bolalarga mo'ljallangan telefonlar kashf etilyapti. O'quvchilar uchun ularning yoshi, xarakteriga mos musiqalar ishlab chiqilsa yoki tanlansa, maqsadga muvofiq bo'lardi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, yana bir mulohazani keltirib o'tishni joiz deb bilamiz. Aynan shu qo'l telefonlari sabab kishilar o'rtasida, ko'proq yoshlar orasida bachkana, qo'pol munosabatlar ko'paymoqda. Bunga misol, bir dugonamning unashirilgan singlisi to'yi arafasida fотиhasi

arziyasijo mo'jaro tufayli buzildi. Ya'ni yigit qizning qayerdaligi-yu, kim bilan ekanligini telefon orqali so'rab biladi, lekin qizning bozorda yurganligiga ishonmay, shovqin-suron, kuy-qo'shiqlar eshitilayotganligi sabab "sen ko'ngilochar yerdasan" deb qo'ng'iroq orqali munosabatlarga chek qo'yadi. Yoki yana bir voqea, bir ayol telefonda begona bir kimsa bilan tanishib qoladi. Buni bilib qolgan turmush o'rtog'i u bilan ajrashadi, o'rtada esa ikki begunoh bola yetim qoladi. Bunday ko'ngilsiz voqealar kishilar o'rtasidagi ishonch tuyg'usiga putur yetkazib, oilaviy munosabatlarning darz ketishiga, pirovardida inson qadrlarining pasayishiga olib kelyapti.

Xulosa o'rinda ayrim takliflarni berib o'tmoqchimiz. Bugun ba'zi bir xorij davlatlarida "Bir kun avtomobilsiz", "Bir kun sigaretsiz" kabi loyihalar ommalashmoqda. Bizda ham, masalan, o'quvchilar o'rtasida "Bir kun qo'l telefonisiz" degan loyiha tashkil etilib, o'quv haftaligining bir kuniga qo'yilsa, bu o'zining yaxshi natijalarini beradi. Ya'ni bunda bola o'rganib qolgan shaxsiy telefonisiz ham maktabga kelish mumkinligini, darsda xotirjam, xayoli buzilmasdan o'tirsa bo'lishini sekin tushunib boradi. Shuningdek, televideniye orqali hozir ichimlik suvini tejash, oilada ularni e'tiborsiz qoldirmaslik to'g'risida reklamalar berib borilyapti. Shunday reklama roliklari o'quvchilarning qo'l telefonlaridan foydalanish madaniyati to'g'risida ham yaratilsa, bu muntazam berib borilsa, o'ylaymizki, yuqorida keltirilgani kabi ko'plab voqea-hodisalarning oldini olgan bo'lamiz.

Nargiza BEKNAZAROVA

ILLAT

“MEN ICHMAYMAN” DEYSIZMI?

Bugun yoshlar orasiga kirib, hech kim ichkilikdan foyda topmagani, ichkilik urush-janjali, g'urbat va umuman zarardan boshqa hech narsa bermasligi haqida aytish befoyda bo'lib qoldi. Shunday bo'lsa-da, "Muammo yechim topmas ekan, munozara tugamaydi", qabilida yana shu mavzuda qalam tebratishni joiz deb bildim.

Aytish kerakki, dunyoviy davlat bo'lgan O'zbekistonning asosiy aholisi musulmonlar ekanligiga qarab, spirtli ichimliklar bozori chaqqon. Men ichmayman deysizmi, yaxshi. Lekin nega to'y kunida stolda shishalar ko'rindi? Yoki onda-sonda bayram kunlari ichasiz xolosmi? Demak, bayram kunlari musulmonchilikdan chiqish mumkin, ertaga yana hushyor tortganingizda diningizga qaytib, ro'zangizni tutaverasiz. Men ichsam ham hech kimga zararim tegmaydi, ichaman-u, uxlayman deysizmi? Bir kun kelib, ishlarigiz yurishmay qolganda, boshqacha ta'sir etmasligiga kafolat bera olasizmi? Zarari yo'q, deb

istaganimizni qilishimiz mumkin ekan-da. Yoxud mehmonni xafa qilib qo'yishdan qo'rqasizmi? Har holda mehmoningiz musulmonchilikni tushunmasa bu sizning aybingiz emas. Yoki do'stlaringizdan ajralib qolaman, deb o'ylaysizmi? Nahotki, haqiqiy do'st do'stiga aroq quyilgan qadah tutsa? Haqiqiy do'st qadahni olib sindiradi, "ich" deb majburlamaydi. Axir bu ko'rga hassadek ayon-ku. Qadahdoshlar esa do'st deb emas, asosan qorin-tomoq (*nafs*) bahonasida yig'ilib turadigan ulfatlar hisoblanib, do'st bilan ulfat yer bilan osmonchalik farq qiladi.

Ayrimlarning ichishga bahonasi tayyor: "Mening o'rimda bo'lganingda, senam ichgan bo'larding. Sen meni tushunmaysan. Ichsam, dardimni oz bo'lsa-da, unutamam, bo'lmasa, allaqachon bu azoblardan o'lib ketgan bo'lardim" va hokazo quloqqa tanish, mayparastlarning doimiy hikmati. Lekin amaliyotda ichkilik azobni oshirsa oshiradiki, aslo kamaytirmasligiga guvohmiz. Ana shunday hikmatni o'zlashtirib olganlarga maslahatimiz – dardingizga davoni hech qachon ichkilikdan izlamang. Bunday qilish hayot sinovlarida sinib ketadigan oqizlarning

ishidir. Ichkilik hech qachon sizga siz istagan narsani – halovatni bermaydi, ishonaverig.

Dunyoda o'g'il bilan otaning, qaynota bilan kuyovning, er bilan xotinning ichib o'tirganidan xunuk manzara bo'lmasa kerak. "O'g'illi bo'ldim, deb yosh otaning bayramni "yuvi" chillali uyga g'irt mast holda kelishi, qizi grant yutgan ota-ona xursandligidan "ellik-ellik" otishi oddiy hol bo'lib qoldi. Shodiyonalarni ichib nishonlashdek ahmoqona odat qayerdan chiqdi? Nega hayotimizda, odatda bir marotaba bo'ladigan to'ylarimizga spirtli ichimliklar qo'yamiz? Yangi kelin-kuyovlarning shampan vinosini ichib, yangi hayotlarini boshlashlari qay darajada bema'nilik ekanligini o'ylab ko'rganmisiz?

Hurmatli erkaklarimizga-ku, qoyil qolmaysan kishi. O'zing mayli, xotining-u keliningni nega ichishga majburlaysan? Juda oshirib yuboribdi, deb o'ylayotgandirsiz-a? Lekin hayotda shunaqasi ham bo'lib turadi. Ayrim erkaklar uchun ayolining ichishdan bosh tortishi u bilan quvonchini baham ko'rishni istamayotgandek go'yo. Farzandi ichayotganini ko'rsak, ota-onasi urishib qo'yasmikan, deb o'ylaymiz. Ota-ona ichsa, kim tanbeh beradi? Yoshlar tarbiyasi yomon, yomon deymiz-u, ularning "tarbiyal" oilalardan chiqqanligini unutib qo'yamiz, goho. "Yaxshilik qilolmasang, yomonlik ham qilma" deganlaridek, biz ham bu toifa erkaklarga shu maqolni eslatib qo'yib, Xudodan insof so'ray olamiz xolos. Shu o'rinda ota-onalarga yuzlansak deyman. Hali farzandingiz so'zingizni ikki qilmaydigan chog'da nega uni to'xtatib qolmaysiz? Nega

ichkilikka oddiy hol kabi qaraysiz? Balki, o'zingiz o'rnak bo'lmaganingiz uchundir? Yoxud uning oy-u yilda bir ichishini zararsiz deb hisoblaysizmi? Bora-bora bu oraliqlar kamayib ketishi mumkinligi sizni xavotirga solmaydimi?

Yo'q, biz bu bilan ichuvchi farzandlar aybini yoppasiga ota-onalariga to'nkamoqchi emasmiz. Faqat ayrim, ha, ayrim ota-onalarni hushyorlikka da'vat etmoqchimiz xolos. Axir qancha ota-onalarning noqobil farzandini yo'lga sololmay, zor-zor qaqshaganiga shohidimiz. "Falonchi mast chog'i nafasi qisilib vafot etibdi", "Falonchining qizi o'z joniga qasd qilindi. Negaligini hech kim bilmaydi, lekin otasi g'irt piyonista", "Falonchi shirakayf ekan, uyiga o't ketganini payqamay qolibdi"... bunday satrlarni hali ko'p davom ettirish mumkin, lekin bunday voqealarning ham hali ko'p davom etishiga indamay qarab tursak bo'lmas.

Yurtdoshim, balki siz ham bu illatdan ozor chekkan bandadirsiz. Boshqalarga bunday ozorlarni ravo ko'rmang. Bizdan faqat yaxshi xotiralar, ezgu ishlar qolsin, katta-yu kichikka o'rnak bo'laylik. Sizga zahar tutayotgan "do'stlar"ga "Men ichmayman!" deyishga jur'at topaylik. Ertadan tashlayman deyapsizmi? Yo'q, bugundan tashlang! Bugundan va butun umrga bu illatdan o'zingizni xalos eting. Yaxshi farzand, yaxshi turmush o'rtog', yaxshi ota (*ona!*) bo'la olishingizni isbotlang. Balki o'shanda farzandingizning yumshoq qo'lchalaridan tutganingizda qo'llaringiz qaltiramas.

Iroda MUINOVA

Yetti iqlimni bilasizmi?

Iqlim lotincha "klima" (og'ish) so'zidan kelib chiqqan bo'lib, fanga eramizdan oldingi II asrda yashagan Gipparx tomonidan kiritilgan. U Yerning odamlar istiqomat qiladigan qismini 12 bo'lakka ajratgan. Yunon olimi Ptolomey bu miqdorni sakkiztagacha kamaytirgan. Lekin o'z qalamiga mansub "Jo'g'rofiya"da iqlimlar nazariyasiga amal qilmagan. Ya'ni jo'g'rofiy joylarni mintaaqalar va yeparxiyalar bo'yicha taqsimlagan.

Jo'g'rofiyani iqlimlar nazariyasiga to'la rioya etgan holda ilk bor Muso al-Xorazmiy (780–850 yillar) o'z asarida bayon qilgan. U Kurrai zamining ma'mur, tushunarliroq qilib aytganda, insoniyat yashaydigan obod qismini yetti iqlimga ajratgan. Ptolomeydan farqli o'laroq, mintaaqalar, mamlakatlar va ulardagi jo'g'rofiy hududlarni emas, balki birinchi iqlimdan to'rtinchi iqlimgacha bo'lgan joylarni tavsiflagan. Bu jihatdan uning 836–847 yillar oralig'ida bitilgan "Kitob surat ul-arz" risolasi beqiyos ahamiyatga ega.

Kitobda quruqlik, suvli va tog'li hududdan iborat 2 402 ta jo'g'rofiy joy o'rni keltiriladi. Mamlakatlar, shaharlar, buloqlar, daryolar, ko'llar, dengizlar, tog'lar va orollar iqlimlar bo'yicha taqsimlanadi. Bu nazariya jo'g'rofiya fanining keyingi rivojiga salmoqli ta'sir ko'rsatdi. Xususan, Yerning ma'mur qismini iqlim mintaaqalari asosida o'rganishni osonlashtirdi.

Al-Xorazmiy g'oyasini yana bir buyuk bobokalonimiz – Ahmad al-Farg'oni (798–865 yillar) o'zining "Kitob al-harakat as-samoviya va javomi' ilm an-nujum" ("Samoviy harakatlar va umumiy ilmi nujum kitobi" – odatda u "Astronomiya asoslari haqidagi kitob" deb ataladi) asarida davom ettirgan. Uning 9-bobini jo'g'rofiyaga bag'ishlagan. Yetti iqlimning barchasini ulardagi mamlakatlar, viloyatlar va shaharlar bilan birga tasvirlagan.

Faqat o'rtadagi farq shundaki, Muso al-Xorazmiyning "Kitob surat ul-arz"i Ptolomey an'anasiga, Ahmad al-Farg'oniying "Kitob al-harakat as-samoviya va javomi' ilm an-nujum"i hindlar an'anasiga asoslangan. Aniqrog'i, al-Xorazmiy iqlimlar tavsifini rub'i ma'murning eng g'arbiy chekkasidan – Afrikaning Atlantika ummoni qirg'og'iga yaqin orollaridan boshlab, eng sharqiy

chekkasigacha, ya'ni Tinch okeanidagi yapon orollarigacha davom ettiradi. Kenglama yo'nalishida ekvatorial yerlardan to'rtinchi iqlim bo'lgan hududlar to'g'risida so'z yuritadi. Al-Farg'oni esa gapni rub'i ma'murning eng sharqiy chetidan boshlaydi. Risoladagi tartib bo'yicha keyingi besh iqlim tavsifi diqqatga sazovorligi bilan alohida ajralib turadi. Ularda Markaziy Osiyo hamda bu mintaaqaga tutash yerlarning viloyat-shaharlari batafsil tilga olinadi.

Mana, ayrim misollar:

"To'rtinchi iqlim Sharqdan boshlanadi va Tibetdan so'ngra Xurosondan o'tadiki, bunda Xo'jand, Ushrushona, Farg'ona, Samarqand, Balx, Buxoro, Hirot, Amuya, Marvarrud, Marv, Saraxs, Tus, Nishopur shaharlari bor. Undan so'ng Jurjon, Qumis, Tabariston, Demovand, Qazvin, Daylam, Ray, Isfahondan o'tadi.

Beshinchi iqlim Sharqda Yajuj mamlakatidan boshlanadi so'ng Xurosonning shimolidan o'tadi. Unda Toroz – savdogarlar shahri, Navokat (Navkat), Xorazm, Isfijob (Sayram), Turaband (O'tror – hozirgi Aris) va Ozarbayjon, Arminiya viloyati, Barda'a (Barda), Nashava (Naxichivon) shaharlari bor.

Yettinchi iqlim Sharqda Yajuj mamlakatining shimolidan boshlanadi, so'ng turkiy mamlakatlar (Markaziy Osiyo) dan, so'ng Jurjon (Kaspiy) dengizining shimolidan, so'ng Rum dengizi (Qora dengiz)ni kesib, saqlabl (slavyanlar) mamlakatidan o'tadi va G'arb (Atlantika) dengizida tugaydi".

Ko'rinib turibdiki, Al-Farg'oni katta kenglikdagi o'lkalarni tavsiflash asnosida o'zining asl Vatani – Movarounnahr haqida batafsilroq to'xtalgan. Bundan tashqari, Yajuj mamlakati deb Sharqdagi afsonaviy yerni emas, balki hozirgi Mo'g'ulistonning sharqi va Xitoyning shimoli-sharqiga mos keladigan aniq jo'g'rofiy hududni ko'rsatgan.

Internet ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

@Vatanparvargazetasi_bot
 "Vatanparvar" birlashgan tahririyati bilan bog'lanish uchun telegram bot



SHU SONNING ELEKTRON SHAKLI

